ANORBANK

# "ANOR BANK" AJda
# yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga majmuaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risida UNIVERSAL SHARTNOMA

**Toshkent 2021**

## 1. UMUMIY QOIDALAR

**1.1.** "ANOR BANK" AJda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga majmuaviy bank xizmatlarini koʻrsatish toʻgʻrisida Universal shartnoma Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Universal shartnoma va unga Ilovalarga muvofiq "ANOR BANK" AJda (keyingi oʻrinlarda "Bank") yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga masofaviy majmuaviy bank xizmatlarini koʻrsatish tartibini belgilab beradi.

**1.2.** Universal shartnomaga bogʻlanish quyidagi yoʻl bilan Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360, 367, 369 va 370-moddalariga muvofiq amalga oshiriladi: Mijoz tomonidan Universal shartnomaga bogʻlanish va hisob(lar)ni ochish (mazkur Universal shartnomaga 1-Ilova) toʻgʻrisida Arizani imzolash va amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan koʻzda tutilgan hujjatlarni, jumladan, Bank va amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq Mijozning identifikatsiyasini oʻtkazish uchun, Hisob raqamini ochish va Universal shartnoma doirasida Bank tomonidan koʻrsatiluvchi barcha bank xizmatlariga kirish huquqini taqdim etish uchun zarur boʻlgan hujjatlarni ilova qilish.

**1.3.** Bank Mijoz tomonidan Bankka taqdim etilgan maʼlumot asosida Mijozga xizmatlarni taqdim etish toʻgʻrisida qaror qabul qiladi, agar qonunchilik tomonidan boshqa tartib koʻzda tutilmagan boʻlsa. Bunda Bank Mijozdan qoʻshimcha maʼlumotlarni soʻrab olishga haqlidir.

**1.4.** Tuzib boʻlingan Universal shartnoma doirasida alohida Shartnomalarni tuzish uchun Mijoz Bankga, jumladan, Autentifikatsion maʼlumotlarni qoʻllash bilan Masofaviy xizmat koʻrsatish kanallari, kirish Kodlari yoki mazkur Universal shartnoma bilan belgilab berilgan tartibda ERI orqali imzolangan rasmiylashtirilgan Arizani taqdim qiladi.

**1.5.** Mijoz tomonidan Autentifikatsion maʼlumotlarni, Arizani rasmiylashtirishda va Bankga ERI bilan imzolangan Arizani taqdim etishda kirish Kodlarini yuritilishi (Bankga xabar berilishi), Bank tomonidan Arizaning aksept qilinishida Arizada va muvofiq Umumiy qoidalarda tavsiflangan shartlarda Bank va Mijoz oʻrtasida Shartnoma tuzilganligini bildiradi.

**1.6.** www.anorbank.uz rasmiy saytda Mijozlar Universal shartnomaning amaldagi tahriri va Bank Tariflari bilan tanishishlari mumkin.

## 2. ATAMALAR VA TUSHUNCHALAR

**Abonent qurilmasi** - Masofaviy xizmat koʻrsatish kanallari orqali Bank bilan axborot va moliyaviy oʻzaro harakatlar uchun qoʻllaniluvchi shaxsiy kompyuter, smartfon, telefon apparati yoki boshqa qurilma.

**Abonent raqami** - telefon tarmogʻi abonentiga taqdim etilgan raqamlar ketma-ketligi (telefon raqami).

**Autentifikatsion maʼlumotlar** - kirish Kodlari, Mijozning noyob logini (login), paroli (password), hamda kirish va amaliyotlarni amalga oshirish uchun qoʻllaniluvchi, jumladan, Internet-Bank, Mobil Bank yoki Internet tarmogʻida, hamda uyali aloqa kanallarida xizmat koʻrsatishning boshqa kanallarini qoʻllash bilan boshqa maʼlumotlar. Autentifikatsion maʼlumotlar Mijozning vakolatlangan shaxslarini oʻz qoʻllari bilan imzolarining oʻxshashi hisoblanadi.

**Bank** - «ANOR BANK» Aksiyadorlik jamiyati, 100170, Toshkent sh., Sayram 5-tor koʻch., 4-uy, Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy bankining 22.08.2020y.dagi 87-son litsenziyasi.

**Bankomat** - Shartnoma boʻyicha naqd pullarni avtomatlashtirilgan (Bank yoki Hamkorning vakolatlangan shaxsini ishtirokisiz) yechib olinishi va toʻldirilishi uchun, jumladan Kartani qoʻllash bilan yoki Mobil Bank tomonidan shakllantirilgan noyob QR-kodni qoʻllash orqali, hamda Bankda texnik imkoniyatlar mavjudligida Shartnoma boʻyicha boshqa amaliyotlarni bajarishga moʻljallangan dasturiy-texnik majmua.

**Omonat** - omonat Shartnomasi bilan muvofiqlikda Bank va Mijoz oʻrtasida kelishilgan muddatlarda foizlar yoki ustamalar bilan yoki ularsiz milliy yoki xorijiy valyutalarni qaytarish

sharti bilan Bankda Mijoz tomonidan joylashtiriluvchi milliy yoki xorijiy valyutalardagi pul mablag'larining qiymati.

**Masofaviy xizmat ko'rsatish** - autentifikatsion ma'lumotlarni qo'llash bilan amaliyotlarni amalga oshirish va,yoki arizalarga ishlov berishga, Mijoz va Bank o'rtasida tuzilgan shartnoma bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etishga farmoyishlarni shakllantirish va bajarish, telefon bo'yicha Bankning kontakt markazi,Internetda Bankning sayti,Bankni Internetda xizmat ko'rsatishning boshqa kanallari (jumladan elektron pochta),uyali aloqa kanallari, jumladan, SMS-xabarlar.

**Majmuaviy xizmat ko'rsatish shartnomasi** - o'z ichiga ajralmas tarkibiy qismlari sifatida mazkur Universal shartnomani, Tariflarni va Universal shartnomaga bog'lanish va Bank tomonidan Mijoz uchun hisob(lar)ni ochish haqidagi Arizani kirituvchi Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga majmuaviy bank xizmatlarini ko'rsatish shartnoma birgalikda Mijoz va Bank o'rtasida Majmuaviy xizmat ko'rsatish Shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

**Shartnoma** - agar boshqasi ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda shartnomalarning quyidagi turlaridan biri:

***– Hisob-kitob xizmat ko'rsatish shartnomasi*** - Hisob raqamini yoki (agar qo'llaniluvchi bo'lsa) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisoblariga xizmat ko'rsatishning Umumiy shartlari bilan ko'z tutilgan bank hisobining alohida turini ochish, yuritish va yopish, hamda o'z ichiga yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisoblariga xizmat ko'rsatishning Arizalari, Tariflari va Umumiy shartlarining ajralmas tarkibiy qismlarini kirituvchi Korporativ kartalarining chiqarilishi va ularga xizmat ko'rsatilishi, hamda Korporativ kartalarini chiqarilishi va ularga xizmat ko'rsatishning Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomasidir.

***– Omonat shartnomasi*** - o'z ichiga bank omonatlarini ochish, ularga xizmat ko'rsatish va ularni yopishiga muvofiq Arizasi, Tariflari va Umumiy shartlarini kirituvchi Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan bank omonatlarini ochish, ularga xizmat ko'rsatish va ularni yopish to'g'risida shartnomadir.

***– Ish haqi loyihasi shartnomasi*** - o'z ichiga Mijozning xodimlariga pul mablag'larini o'tkazishning Arizalari, Tariflari va Umumiy shartlarini ajralmas tarkibiy qismlari sifatida kirituvchi Xodimlarning Karta hisoblarini to'ldirish uchun Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan pul mablag'larini o'tkazish to'g'risida shartnomadir.

***– Kredit shartnomasi*** - o'z ichiga yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarni kreditlashning muvofiq Arizalari, tariflari va Umumiy shartlarining ajralmas tarkibiy qismi sifatida Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan Kreditni taqdim etish to'g'risida shartnomadir.

**–Elektron to'lovlar bo'yicha ma'lumotlarni qabul qilish va ularga ishlov berish bo'yicha shartnoma *(POS yoki e-POS terminal yordamida)*** - o'z ichiga ajralmas tarkibiy qismlar sifatida POS terminali yordamida milliy valyutada xizmatlar ko'rsatish va to'lovlarni qabul qilishning muvofiq Arizalari, Tariflari va Umumiy shartlari yoki e-POS terminal yordamida milliy valyutada xizmatlar ko'rsatish va to'lovlarni qabul qilishning (internet-ekvayring) Umumiy shartlarini kirituvchi Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan (POS yoki e-POS terminal)ni taqdim etish to'g'risidagi shartnoma.

**Komission mukofot (Komissiya)** - Hisob raqamidan Bank tomonidan chegirib qolinuvchi yoki, Hisob raqamida mablag'lar yetishmovchiligi holatida Bankning Mijozga nisbatan talabi sifatida chiqariluvchi xizmatlar uchun to'lov. Hisob-kitob xizmat ko'rsatish Shartnomasi bilan ko'zda tutilgan komissiyalar Hisob raqamidan mablag'larni hisobdan chiqarish bo'yicha birinchi amaliyotni amalga oshirish sanasidan boshlab chegirib qolinadi.

**Qarzdorlik** - o'z ichiga kredit qiymatini, Kreditdan foydalanganlik uchun qo'shib hisoblangan foizlar, komissiyalar, to'lovlar, jumladan, qo'shimcha xizmatlar uchun, hamda qo'llaniluvchi Tariflar bilan muvofiqlikda jarimalarni kirituvchi Shartnoma bo'yicha Mijoz tomonidan Bankga to'lanishi kerak bo'lgan barcha pul qiymatlari.

**Ariza** - o‘z ichida Bank bilan Shartnomani tuzmoqchi bo‘lgan Mijozning istagiga muvofiq Shartnomaning barcha ahamiyatli shartlarga ega bo‘lgan Bankga yuborilgan Mijozning taklifi (oferta).

**Universal shartnomaga bog‘lanish to‘g‘risida ariza** - o‘z ichida majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasini Bank bilan tuzmoqchi bo‘lgan Mijozning istagini, hamda muvofiq Umumiy shartlar doirasida alohida Shartnomani tuzishga Arizani Bankni va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining talablariga muvofiq Mijozni identifikatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarga ega bo‘lgan Bankga yunaltirilgan Mijozning yozma taklifi (oferta).

**Internet-Bank** - Bank va Mijozning o‘zaro harakatlarni, jumladan ma’lumotlar bilan almashish va Internet tarmog‘i bo‘yicha alohida amaliyotlarni amalga oshirishga imkon beruvchi Bank servisi.

**Mobil Bank** - Bank va Mijozning o‘zaro harakatlarni amalga oshirish, jumladan, mobil qurilmaning (smartfon, planshet, noutbuk va hokazolar) maxsus ilovasi orqali ma’lumotlar bilan almashish va alohida amaliyotlarni amalga oshirishga imkon beruvchi Bank servisi.

**Mijoz** - o‘rnatilgan tartibda Bank bilan muvofiq Umumiy shartlar bilan muvofiqlikda majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasini va hisob-kitob xizmat ko‘rsatish Shartnomasini tuzgan, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan muvofiqlikda tashkil etilgan va ro‘yxatdan o‘tkazilgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

**Kirish kodlari** - Mijozning Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari orqali Bankga murojaat qilishida uni identifikatsiya qilishga imkon beruvchi PIN-kod, raqamli yoki harfli grafika kodlari. Kirish kodlari Mijozning vakolatlangan shaxslarini o‘z qo‘llari bilan imzolarining o‘xshashi hisoblanadi.

**Komprometatsiya qilish** - Autentifikatsion ma’lumotlar yoki ERI yo‘qotilishi, Autentifikatsion ma’lumotlarni yoki ERIni yo‘qotilishiga gumonlar, yoki Autentifikatsion ma’lumotlarga yoki ERIga uchinchi shaxslarning kirishi haqida gumonning hosil bo‘lishi.

**Korporativ karta (Karta)** - Hisob raqamidagi qoldiqlar chegarasida pul mablag‘larini va Hisob raqamidagi mablag‘larni yetishmovchiligida yoki mavjud bo‘lmasligida Bank tomonidan taqdim etilgan Kreditni idora qilishga, agar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Shartnoma, To‘lov tizimlarining Qoidalari va Bankning ichki hujjatlari bilan boshqacha shart o‘rnatilmagan bo‘lsa, uning egasiga imkon beruvchi hisob-kitob xizmat ko‘rsatishi Shartnomasi doirasida chiqarilgan bank kartasi.

**Umumiy shartlar** - Universal shartnomaga ilova hisoblanuvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisoblariga xizmat ko‘rsatish, hamda korporativ kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatish tartibining Umumiy shartlari, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning xodimlariga pul mablag‘larini o‘tkazishning Umumiy shartlari, bank omonatlarini ochish, ularga xizmat ko‘rsatish va ularni yopishning Umumiy shartlari, e-POS terminal yordamida milliy valyutada xizmat ko‘rsatish va to‘lovlarni qabul qilishning Umumiy shartlari (internet-ekvayring), POS terminal yordamida milliy valyutada xizmatlar ko‘rsatish va to‘lovlarni qabul qilishning Umumiy shartlari.

**Amaliyot kuni (amaliyot vaqti)** - Bank tomonidan o‘rnatilgan ish kunining qismi, uning davomida Bank Mijozning topshiriqnomalarini qabul qiladi va bajaradi. Amaliyot vaqti haqidagi ma’lumot Internet tarmog‘idagi Bank saytiga joylashtiriladi.

**PIN-kod** - Bank tomonidan har bir Kartaga tayinlanuvchi yoki masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari yordamida Mijoz tomonidan mustaqil o‘rnatiluvchi, va bankomatlarda, terminallarda va hokazolarda Kartani qo‘llash bilan amaliyotlarni o‘tkazishda Mijozni identifikatsiyasi uchun xizmat

i a i a l l ı
qiluvchi raqamli shaxsiy identifikatsiya raqami. PIN-kodni tayinlash usuli Bank yoki To‘lov tizimi tomonidan belgilab beriladi.

**To‘lov tizimi (TT)** - Yagona umumrespublika protsessing markazi (YaUPM),Milliy banklararo protsessing markazi (HUMOCARD),Visa International va boshqa to‘lov tizimlari.

**Topshiriqnoma** - hisob-kitob xizmat ko‘rsatish Shartnomasi bo‘yicha amaliyotlarni amalga oshirishda Mijozning topshirig‘i.

**Hisob raqami (Hisob)** - O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me’yoriy hujjatlari, Bankning ichki hujjatlari va Majmuaviy xizmat ko‘rsatish shartnomasi tomonidan belgilab beriluvchi Mijozning bank (hisob) raqami, amaliyotlar ro‘yxati, hamda hisob-kitoblarning tartibi va shakli.

**Xabar** - Mijoz tomonidan Bankga taqdim etilgan identifikator, Bankning mobil ilovalari bo‘yicha yoki Abonent qurilmalarining boshqa imkoniyatlarini, jumladan, push-bildirgilarni qo‘llash bilan xabarlar servisi yordamida Shartnoma doirasida uzatiluvchi ma’lumot.

**Omonat hisobi** - omonat Shartnomasi shartlari bilan muvofiqlikda Mijoz tomonidan milliy yoki xorijiy valyutada joylashtirilgan pul mablag‘lari hisobga olinuvchi hisob.

**Tarif rejasi** - muvofiq Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadigan foizlarni, komissiyalarni, to‘lovlarni va jarimalarni qo‘llash, hisoblash, undirish va qo‘shib hisoblash o‘lchamlari va qoidalari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lgan Bankning vakolatlangan organi tomonidan tasdiqlanuvchi hujjat.

**Tariflar** - majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasining ajralmas qismi hisoblanadigan Tarif rejalarining jamlanmasi.

**Elektron raqamli imzo (ERI)** - elektron shakldagi boshqa ma’lumotga ulangan (imzolanuvchi ma’lumot) yoki ma’lumotni (hujjatni) imzolaydigan shaxsni identifikatsiyalash uchun qo‘llaniluvchi shunday ma’lumot bilan boshqa tarzda bog‘langan elektron shakldagi ma’lumot.

## 3. SHARTNOMA PREDMETI

**3.1** Majmuaviy xizmat koʻrsatish Shartnomasi doirasida Bank Mijozga Umumiy shartlar bilan muvofiqlikda alohida Shartnomalarning tuzish imkonini taqdim etadi.

**3.2** Agar mazkur Universal shartnomaning biron bir shartlari muvofiq Umumiy shartlar bilan belgilangan qoidalarga zid kelsa, u holda Umumiy shartlar bilan belgilangan qoidalar qoʻllaniladi.

**3.3** Mijoz Universal shartnomaning shartlariga umumiy tarzda qoʻshiladi. Mazkur Shartlarning ajralmas qismi boʻlib quyidagi ilovalar, jumladan, ammo cheklanmasdan, hisoblanadi:

1-Ilova "Universal shartnomaga bogʻlanish va hisob(lar)ni ochish haqida Ariza".

2-Ilova "Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisoblariga xizmat koʻrsatish, hamda korporativ kartalarni chiqarish va ularga xizmat koʻrsatishning Umumiy shartlari".

3-Ilova "Yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlarning xodimlariga pul mablagʻlarini oʻtkazishning Umumiy shartlari".

4-Ilova "Bank omonatlarini ochish, ularga xizmat koʻrsatish va ularni yopishning Umumiy shartlari";

5-Ilova "e-POS terminal yordamida milliy valyutada xizmat koʻrsatish va toʻlovlarni qabul qilishning Umumiy shartlari (internet-ekvayring)";

6-Ilova " POS terminal yordamida milliy valyutada xizmat koʻrsatish va toʻlovlarni qabul qilishning Umumiy shartlari".

**3.4** Majmuaviy xizmat koʻrsatish Shartnomasi Bankning rasmiy saytida nashr qilinadi. Mijozning majmuaviy xizmat koʻrsatish Shartnomasining shartlari, jumladan, majmuaviy xizmat

i a i a l l ı

i

ko‘rsatish Shartnomasiga kiritiluvchi o‘zgarishlar,qo‘shimchalar bilan tanishish payti etib ma’lumotlar nashr etilishi yoki xizmatlarni olish paytidan hisoblanadi. Universal shartnoma va Tariflar bilan Mijozlarni tanishtirish maqsadida Bank www.anorbank.uz manzili bo‘yicha Internetdagi Bank saytida Universal shartnoma va Tariflar (Tarif rejalar) matnini nashr qiladi,

la ai a l r a a ı

pul mablag‘larini idora qilishga o‘rnatilgan tarzda vakolatlar berilgan, imzolarining namunalari Mijoz tomonidan taqdim etilgan imzolar va muhrning bosma nusxasi namunalari kartochkasida ko‘rsatilgan Mijozning vakillari ega bo‘ladi. Bundan tashqari, Bank Mijozdan qo‘shimcha ma’lumotlarni va hujjatlarni talab qilib olishga haqli.

**3.12.**

vakolatlarni taqdim etadi. Oldindan berilgan akseptning chaqirib olinishi Masofaviy xizmat koʻrsatish kanallari yordamida yuborilgan Mijozning yozma arizasi boʻyicha amalga oshiriladi.

**3.18** Mazkur bilan Mijoz shunday talablarning qiymatida Bankning barcha talablarining akseptini, jumladan, Hisob raqamiga chegirib qolishga, Bank tomonidan taqdim etilgan oʻlchamlarda pul mablagʻlarining omonatlari Hisobiga akseptni (oldindan berilgan aksept) taqdim etadi, aynan esa:

xizmatlarni koʻrsatish sanasiga majmuaviy xizmat koʻrsatish Shartnomasi bilan oʻrnatilgan oʻlchamda xizmatlarni taqdim etish uchun komissiyalar (Mijozga xizmatlarni koʻrsatish munosabati bilan Bankning komission mukofoti va/yoki boshqa xarajatlari);

Majmuaviy xizmat koʻrsatish Shartnomasining shartlari bilan koʻzda tutilgan jarimalar;

Bank va Mijoz oʻrtasida tuzilgan yoki yangi tuzilgan majmuaviy xizmat koʻrsatish Shartnomasi va boshqa Shartnomalar boʻyicha, Bankda ochilgan Mijozning har qanday hisoblaridan shunday shartnomalar bilan koʻzda tutilgan oʻlchamlarda, tartibda va shartlarda Bank oldida Mijozning muddati oʻtgan qarzdorligi qiymati, jumladan, agar koʻrsatib oʻtilgan shartnomalar bilan mazkur band bilan muvofiqlikda Mijozning akseptiga asosan muvofiq qiymatni toʻlashga imkoniyat koʻzda tutilmagan boʻlsa;

xatolik bilan qoʻshib hisoblangan qiymatlar, ortiqcha toʻlangan foizlar, hamda Mijoz tomonidan Bankga toʻlanishi/qaytarilishi kerak boʻlgan boshqa pul mablagʻlari.

**3.19** Agar rekvizitlarni oʻzgartirish yoki toʻlovni bekor qilish boʻyicha Bankning harakatlari Tariflarda toʻgʻridan-toʻgʻri koʻrsatilmagan qoʻshimcha xarajatlar bilan bogʻliq boʻlgan holatda, Mijoz Bankga shunday xarajatlarni qoplab berishi shart. Mazkur bilan Mijoz oldindan berilgan aksept tartibida Mijozning hisobidan ushbu xarajatlarning qiymatini chegirib qolinishini Bankga topshiradi.

**3.20** Bank tomonidan xatolik holatida soʻrovlar, rekvizitlarni oʻzgartirish, toʻlovni bekor qilish va uning takroran bajarilishi boʻyicha barcha harakatlar Bank tomonidan oʻz hisobidan amalga oshiriladi.

**3.21** Xato toʻlov rekvizitlari oqibatida yoki toʻlovni bekor qilish haqidagi soʻrov boʻyicha Mijozning bajargan toʻlovlari boʻyicha qaytarilgan mablagʻlar Bank tomonidan olingan qiymatda Hisob raqamiga oʻtkaziladi.

## 4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

**4.1.** Mazkur Universal shartnomaning 4-boʻlimi bilan koʻzda tutilgan huquqlar va majburiyatlardan tashqari, Bank va Mijoz muvofiq Umumiy shartlar bilan oʻrnatilgan huquq va majburiyatlarga ham ega boʻladi.

**4.2. Bank quyidagi majburiyatlarni oʻz zimmasiga oladi:**

4.2.1. Mijoz bilan bogʻliq boʻlgan har qanday maʼlumotga nisbatan maxfiylikka rioya qilish. Bank Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan oʻrnatilgan tartibda Oʻzbekiston Respublikasining davlat hokimiyati organlaridan chiquvchi qarorlar, farmoyishlar, farmonlar, koʻrsatmalar, buyruqlar yoki boshqa hujjatlariga muvofiq har qanday shunday maʼlumotlarni oshkor qilish huquqiga ega.

**4.3. Mijoz quyidagi majburiyatlarni oladi:**

4.3.1. Bankga, jumladan Bankning soʻrovi boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan koʻzda tutilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun Bankga zarur boʻlgan haqqoniy maʼlumotlarni va hujjatlarni, jumladan pul mablagʻlari bilan amaliyotlar toʻgʻrisidagi hujjatlarni va maʼlumotlarni, oʻtkazilgan pul mablagʻlarining olinganligini asoslanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni, hamda Mijozga, manfaatdorlarga yoki xorijiy davlatlarning (hududlarning) soliq rezidentlarini aniqlash uchun zarur boʻlgan ularni bevosita yoki bilvosita nazorat qiluvchi shaxslarga nisbatan hujjatlarni va maʼlumotlarni taqdim etish.

4.3.2. Mijozning Internet-Bankida/Mobil Bankida aks ettirilgan Mijoz, Mijozning Vakili, Manfaatdori, Benefitsiar egasi haqidagi maʼlumotlar haqiqatga toʻgʻri kelmasligi haqida Bankni zudlik bilan xabardor qilish, hamda majmuaviy xizmat koʻrsatish Shartnomasini tuzish maqsadida Mijoz tomonidan taqdim etilgan maʼlumotlarga taalluqli barcha oʻzgarishlar haqida Bankni 3 (uch) ish kuni davomida yozma xabardor qilishi va identifikatsiya qilish maqsadida va bir yilda kamida 1 (bir) marta majmuaviy xizmat koʻrsatish shartnomasini tuzish va identifikatsiya qilish maqsadida

i r' 'nı a
taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniyligini tasdiqlab turishi. Internet-bankda,Mobil Bankda aks ettirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirishi dalili bo'yicha Mijozdan xabarning mavjud emasligi, hamda majmuaviy xizmat ko'rsatish Shartnomasi tuzilgan sanadan yil o'tishi bo'yicha va har bir keyingi yilda xabarnomalarning mavjud emasligi Bankda mavjud bo'lgan ma'lumotlarning haqqoniyligini va dolzarbligini Mijoz tomonidan tasdiqlanishini anglatadi.

4.3.3. Mijoz (vakolatlangan shaxslar) bilan aloqa uchun haqqoniy ma'lumotlarni Bankga taqdim etish, ularning o'zgartirilishi holatida esa darhol yangilangan ma'lumotlarni taqdim etish. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va majmuaviy xizmat ko'rsatish Shartnomasi bilan ko'zda tutilgan xabarnomalarni Mijozga yuborilishi bo'yicha Bankning majburiyatlari Bankda Mijoz bilan aloqa uchun ma'lumotning mavjudligi bilan muvofiqlikda xabarnomaning yuborilishida bajarilgan hisoblanadi.

4.3.4. Majmuaviy xizmat ko'rsatish Shartnomasining shartlarini bajarilishiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar bilan mustaqil ravishda tanishish. Elektron hujjat ko'rinishida umumiy erishimlikdagi Bank tomonidan joylashtirilgan ma'lumot Bankning rasmiy saytida Bank tomonidan nashr etilishi sanasidan yoki Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari yordamida elektron hujjatlarning Mijozga taqdim etilish sanasidan Mijozga axborot uchun o'rnatilgan tarzda yetkazilgan hisoblanadi.

4.3.5. Shaxsiy ma'lumotlari majmuaviy xizmat ko'rsatish Shartnomasi doirasida Bankga Mijoz tomonidan taqdim etilgan shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni talablariga rioya qilish. Universal shartnomaga bog'lanish haqidagi Arizada va boshqa hujjatlarda jismoniy shaxslar haqida ma'lumotlarni ko'rsatib, Mijoz majmuaviy xizmat ko'rsatish Shartnomasini bajarish maqsadida, hamda Mijozga va ko'rsatib o'tilgan jismoniy shaxslarga Bankning boshqa mahsulotlarni,xizmatlarni taqdim etish maqsadida ko'rsatib o'tilgan shaxslarning u tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berishni Bankga topshiradi. Bunda, Mijoz oqibatlar, jumladan mulkiy xarakterdagi oqibatlar uchun, u tomonidan ko'rsatilgan jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlariga Mijoz va Bank tomonidan ishlov berilishiga (jumladan Bankga uzatilishiga), hamda ko'rsatib o'tilgan jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun talablari bilan muvofiqlikda ma'lumotlarning yetkazilishiga bunday rozilikni olish talabini buzganlik uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

4.3.6. Mazkur Shartlarda ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun olinishi zarur bo'lgan jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish, ularni qo'llash va saqlashga rozilikni chaqirib olinishi, qisman yoki to'liq majmuaviy xizmat ko'rsatish Shartnomasi (Shartnomalar)ning Tomonlar bilan bajarilishini qiyinlashtiruvchi yoki imkonsiz qiluvchi shunday ravishda ushbu bandda ko'rsatilgan roziliklarning chaqirib olinish sanasidan bir tomonlama tartibda Bank tomonidan majmuaviy xizmat ko'rsatish Shartnomasi (Shartnomalar)ning bekor qilinishi uchun asos hisoblanadi. Mazkur bandda tavsiflangan asoslar bo'yicha majmuaviy xizmat ko'rsatish Shartnomasini bekor qilish holatida, Mijozning Bankda ochilgan hisoblari majmuaviy xizmat ko'rsatish Shartnoma (Shartnoma)ning bekor qilish sanasidan yopilishi kerak. Tomonlar mazkur bandda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha majmuaviy xizmat ko'rsatish Shartnomasi (Shartnoma)ni bekor qilish holatida, Tomonlarning qo'shimcha kelishuvi talab etilmasligi bilan rozilik berishdi.

4.3.7. Hujjatlarning yangi tahririni va kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda majmuaviy xizmat ko'rsatish Shartnomasi doirasida Bankga Mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning yangilangan ma'lumotlarini bunday o'zgarishlar kiritilishi va/yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilish sanasidan 3 (uch) ish kuni davomida (agar o'zgarishlar ro'yxatdan o'tkazilishi kerak bo'lsa), jumladan, Mijozning hisobini idora qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish.

4.3.8. Jarimani hisobga olgan holda Bank oldida qarzdorlikni (uning mavjudligida), agar u majmuaviy xizmat ko'rsatish Shartnomasi yoki Shartnoma bilan muvofiqlikda qo'shib hisoblangan bo'lsa, so'ndirish.

4.3.9. Internet-Bankg,Mobil Bankga va Masofaviy xizmat ko'rsatishning boshqa kanaliga kirishni olish imkonsizligi, jumladan, ammo cheklanmagan holda, Kartaning yoki Abonent qurilmasining o'g'irlanishi, yo'qotilishi, hamda Komprometatsiya qilinish holatida, bu haqda Bankga zudlik xabar berish. Bunday holatlar haqida Bankni o'z vaqtida xabardor qilmaslik holatida, Bank uchinchi shaxslarning qonunga zid firibgarlik harakatlari bilan Mijozga keltirilgan bevosita yoki bilvosita zarar uchun Mijoz oldida javobgar bo'lmaydi.

. . i l · ın

4.3.10. Autentifikatsion ma'lumotlar saqlanishi xavfsizligini ta'minlash, Elektron raqamli imzolarning maxfiyligini ta'minlash, xususan, ularning uchinchi shaxslar tomonidan qo'llanilishiga yo'l qo'ymaslik, Autentifikatsion ma'lumotlarga, ERIga kirishga huquqlarni qo'lga kiritilishini oldini olishning choralarini ko'rish. Maxfiylik buzilishi haqida Bankni zudlik bilan xabardor qilish. Maxfiylik buzilishi haqida Mijozdan xabarnomani olgunga qadar Bank uchinchi shaxslarning noqonuniy,firibgarlik harakatlari, bunday harakatlar bilan Mijozga keltirilgan bevosita yoki bilvosita zarur, ammo cheklanmagan holda, Autentifikatsion ma'lumotlarga, Elektron raqamli imzolarga noqonuniy kirish huquqini olgan vakolatlanmagan shaxslar tomonidan Bankga yuborilgan Mijozning hisobi bo'yicha Bank tomonidan ijro etilgan farmoyishlar va Bank tomonidan ijro uchun qabul qilingan farmoyishlar uchun Mijoz oldida javobgarlikka ega bo'lmaydi.

4.3.11. Xizmat ko'rsatishni qabul qilgunga qadar yoki amaliyotni amalga oshirgunga qadar mustaqil ravishda manfaatdor, ya'ni qonunchilik va Bank bilan ko'zda tutilgan hajmda va tartibda pul mablag'lari va boshqa mulk bilan amaliyotlarni o'tkazishda Mijoz manfaatlariga, jumladan, agentlik shartnomasi, topshiriq shartnomasi, komissiya va ishonchlilik boshqaruvi asosida harakatlarni amalga oshiruvchi shaxs haqida xabar berish. Manfaatdorlar haqida ma'lumotlarni Bankga taqdim etmaslik bundaylar mavjud emasligi haqida Mijozning xabari hisoblanadi.

4.3.12. Benefitsiar mulkdor, ya'ni oxir oqibatda mulkdorlik huquqiga ega bo'lgan yoki Mijozni haqiqatdan ham nazorat qiluvchi, va uning manfaatlarida pul mablag'lari yoki boshqa mulk bilan amaliyotlarni amalga oshiruvchi shaxs haqida xabar berish.

4.3.13. 3 (uch) ish kuni davomida manfaatdorlar va benefitsiar mulkdorlar haqida Mijoz tomonidan xabar berilgan ma'lumotlarga taalluqli bo'lgan barcha o'zgartirishlar haqida Bankni yozma xabardor qilish, hamda bir yilda kamida 1 (bir) marta taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniyligini tasdiqlash. Manfaatdorlar va benefitsiar mulkdorlar haqida ma'lumotlarning taqdim etilish sanasidan va har bir keyingi yil o'tib borishi bo'yicha Mijozdan yozma xabarnomaning mavjud emasligi Bankga avval taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniyligini va dolzarbligini tasdiqlanishini anglatadi.

4.3.14. Mijoz birinchi Hisob raqami ochishda AQSh soliq to'lovchisi maqomining mavjudligi haqidagi ma'lumotlarni Bankga xabar qilishi, hamda maqomning o'zgarishi sanasidan 15 (o'n besh) kalendar kun davomida AQSh soliq to'lovchisi maqomining mavjudligi yoki uning o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etishi shart.

4.3.15. Bankning talabi bo'yicha majmuaviy xizmat ko'rsatish Shartnomasi va/yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan o'rnatilgan shartlar, qoidalar va talablarning Mijoz tomonidan bajarilmasligi/buzilishi bilan Bankga keltirilgan zararlarni qoplash.

4.3.16. Autentifikatsion ma'lumotlarni va ERI kalitlarini yaratuvchi va (yoki) qo'llaydigan Mijoz/Mijozning vakolatlangan shaxslari bunday ma'lumotlarning va kalitlarning maxfiyligini saqlashi shart.

4.3.17. Mijozning soliq rezidenti, manfaatdorlarga vab\

ularni bevosita yoki bilvosita nazorat qiluvchi shaxslarning maqomiga ta'sir qiluvchi hujjatlarning va ma'lumotlarning va/yoki holatlarning o'zgarishi haqida dolzarb hujjatlarni va ma'lumotlarni 15 (o'n besh) kalendar kun davomida Bankga taqdim etish bilan Bankni zudlik bilan xabardor qilish.

**4.4. Bank quyidagi huquqlarga ega:**

4.4.1. Mijozni, Mijoz vakilini, manfaatdorni, benefitsiar mulkdorni identifikatsiya qilinishini o'tkazishda va ular haqidagi ma'lumotlarni yangilashda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, majmuaviy xizmat ko'rsatish shartnomasi bilan ko'zda tutilgan hujjatlarning va ma'lumotlarning Mijozdan, Mijoz vakilidan taqdim etilishini talab qilish va Mijozdan, Mijoz vakilidan ularni olish.

4.4.2. Majmuaviy xizmat ko'rsatish Shartnomasini tuzish va uni bajarish uchun, jumladan uchinchi shaxslarni jalb qilgan holda, Mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni va ma'lumotlarni tekshirish. Mazkur bilan Mijoz unga nisbatan ma'lumotlarni uchinchi shaxslardan, jumladan soliq organlaridan, statistika organlaridan, kredit byurolaridan va hokazolardan olinishiga o'z roziligini beradi.

4.4.3. Majmuaviy xizmat ko'rsatish Shartnomasi bilan o'rnatilgan majburiyatlarni bajarishga uchinchi shaxslarni jalb qilish.

4.4.4. Shartnomalarni tuzishda, hamda Mijozning Bankga boshqacha tarzda murojatida kuzatish, fotosuratga olish, audio- va videoyozuvlarni qilish, jumladan telefon so'zlashuvlarini

. . i l · al n
yozib olishni bunday yozuvlar haqida Mijozni (uning vakilini) xabardor qilgan holda qanday bo‘lsa, uni xabardor qilmasdan ham shunday tarzda amalga oshirish. Mijoz Bank bunday yozuvlarni Mijoz bilan munosabatlar tugatilgan paytdan boshlab 5 (besh) yil davomida saqlash, hamda majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasi yoki Shartnoma munosabati bilan har qanday tergovlar o‘tkazilishida ularni qo‘llashga haqli ekanligi bilan rozilik bildiradi.

4.4.5. Mijozdan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida va majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasi (Umumiy shartlar bilan muvofiqlikda alohida Shartnomalar) shartlarida ko‘zda tutilgan holatlarda hujjatlarni va ma’lumotlarni, jumladan Mijozning, benefitsiar mulkdorning va ularni pul mablag‘lari bilan amaliyotlari, Bank bilan ishbilarmonlik munosabatlarni va uning taxminiy xarakterini aniqlash maqsadida, moliyaviy holati haqidagi, Mijozning pul mablag‘larining yoki boshqa mulkining kelib chiqish manbalari va o‘tkazilgan pul mablag‘larining asoslangan qabul qilib olinishini tasdiqlovchi hujjatlarni bevosita yoki bilvosita nazorat qiluvchi shaxslarning hujjatlarini va ma’lumotlarini so‘rab olish.

4.4.6. O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki me’yoriy hujjatlari bilan, hamda majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasi va Bankning ichki hujjatlari bilan muvofiqlikda ko‘zda tutilgan asoslar bo‘yicha Universal shartnomaga bog‘lanish haqidagi Arizaning ko‘rib chiqilishida har qanday shaxsga rad javobi berish huquqini o‘zida qoldiradi.

4.4.7. Mazkur Universal shartnoma va Bankning ichki hujjatlari bilan muvofiqlikda va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan ko‘zda tutilgan holatlarda Mijoz bilan majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasini bekor qilish.

4.4.8. Hujjatlar, jumladan identifikatsiya maqsadida, hamda Bankning ichki hujjatlari bilan muvofiqlikda va O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan ko‘zda tutilgan holatlarda, taqdim etilmagan amaliyotni amalga oshirish haqida Mijozning topshirig‘ini bajarilishida rad etish.

4.4.9. Mijozni xabardor qilmasdan xato amaliyotlarni bekor qilinishini amalga oshirish.

4.4.10. Xato amaliyotlarni bekor qilishda uning bekor qilinishigacha xato amaliyotga ishlov berilish sanasidan davr uchun foizlarni qo‘shib hisoblashni (tariflarda shunday shartning mavjudligida) amalga oshirmaslik.

4.4.11. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini ijro etish maqsadida, jumladan identifikatsiya qilish maqsadida Bank tomonidan so‘rab olinuvchi hujjatlarni va ma’lumotlarni Bankga Mijoz tomonidan taqdim etilmasligida Korporativ kartani bloklash yoki Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallaridan foydalanishni cheklash.

4.4.12. Mijoz Bank mijozi hisoblanishi haqidagi ma’lumotni Internet global tarmog‘ida va boshqa qonuniy usulda tarqatilishi,joylashtirilishi yo‘li bilan Mijozning tovar belgilari,xizmat ko‘rsatish belgilari, firma nomlanishini va boshqa belgilarini, jumladan: taqdimotlarda, broshyuralarda, bukletlarda, varaqalarda qo‘llashga haqlidir.

4.4.13. Jinoyat faoliyatidan, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishini moliyalashtirishdan olingan daromadlarni qonuniylashtirilishiga qarshi ta’sir ko‘rsatish maqsadida Mijozni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi va hisob bo‘yicha amalga oshiriluvchi amaliyotlarning qonuniyligini tasdiqlovchi ma’lumotlarni va hujjatlarni Mijozdan taqdim etilishini talab etish.

Bank tomonidan quyidagilar to‘liq yoki qisman aniqlanishi kunida Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bir tomonlama voz kechish:

– jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni qonuniylashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollari tarqalishini moliyalashtirish maqsadida Korporativ kartaning, boshqa amaliyotlarning Hisobining qo‘llanilishining asoslangan gumonlanishida;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni qonuniylashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollari tarqalishini moliyalashtirish maqsadida amaliyotlarni o‘tkazish uchun shubhali (gumonli) amaliyotlarni yoki Kartaning asoslangan shubhali qo‘llanilishining takroriy o‘tkazilishi.

4.4.14. To‘lov rekvizitlarini ko‘rsatishda Mijoz yoki uchinchi shaxs tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolik aniqlanish yoki O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me’yoriy hujjatlari bilan o‘rnatilgan hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirishda Mijoz tomonidan talablar buzilish holatida Mijozning topshiriqlarini bir tomonlama tartibda bajarmaslik.

4.4.15. Shartnomani tuzish maqsadi bo‘lib jinoiy faoliyatni amalga oshirishdan olingan daromadlarni qonuniylashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqalishini moliyalashtirish maqsadida amaliyotlarni amalga oshirish hisoblanishi haqida gumonlarning mavjudligi holatida Shartnomani tuzishda qonunchilikning talablariga asosan bir tomonlama tartibda rad etish.

4.4.16. Agar Bankda amaliyotlar jinoiy faoliyatni amalga oshirishdan olingan daromadlarni qonuniylashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqalishini moliyalashtirish maqsadida bajarilayotgani shubhasi paydo bo‘lganda, amaliyotni amalga oshirish haqida Mijozning Topshirig‘ini bajarilishining qonunchilik talablari asosida bir tomonlama tartibda rad etishi (jismoniy shaxs hisobidan kelib tushgan pul mablag‘larini qo‘shib o‘tkazish bo‘yicha amaliyotlar bundan mustasno).

4.4.17. Bir tomonlama tartibda Mijozning muvofiq amaliyotlarini (hisobga kelib tushgan pul mablag‘larini qo‘shib o‘tkazish bo‘yicha amaliyotlardan bundan mustasno) to‘xtatish yoki Qonunchilik bilan ko‘zda tutilgan, jumladan jinoiy faoliyatni amalga oshirishdan olingan daromadlarni qonuniylashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqalishini moliyalashtirish sohasidagi holatlarda va tartibda Mijozning hisobida(larida)gi pul mablag‘larini bloklash (muzlatish).

4.4.18. Muvofiq amaliyotlarni bajarish uchun kuchini yo‘qotgan ruxsat etuvchi hujjat o‘rniga yangi ruxsat etuvchi hujjatning ma’lumotlarini Mijozda mavjudligini talab etiluvchi holatda, litsenziyalar,guvohnomalar va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlarning amal qilish muddati o‘tishidan keyingi kuni alohida amaliyotlarga kirishni bir tomonlama tartibda bloklash (Topshiriqlarni bajarilishini rad etish).

4.4.19. Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari yordamida gumonli yoki shubhali amaliyotlarni o‘tkazish xavfini pasaytirish maqsadida bir tomonlama tartibda:

– Masofaviy xizmat ko‘rsatish servislarini qo‘llash bilan Mijoz tomonidan amalga oshirilgan shubhali amaliyotlarni aniqlash holatida o‘tkazilgan amaliyotlarning qonuniyligini Mijoz tomonidan yozma tushuntirilishi paytigacha Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari yordamida Mijozga xizmatlarni ko‘rsatilishini to‘xtatish yoki rad etish;

– Mijozning uning manzili bo‘yicha, jumladan Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallarini qo‘llash bilan shubhali amaliyotlarni o‘tkazish haqida gumonlar mavjudligida bevosita Mijozning o‘zi bilan amaliyotlarni amalga oshirish jarayonini o‘rganish uchun tekshirishni amalga oshirish;

– uch kunlik muddatga yoki qonunchilik bilan o‘rnatilgan boshqa muddatga shubhali amaliyotlar amalga oshirilgan Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanalini qo‘llash bilan ushbu kanal yordamida xizmatning taqdim etilishini to‘xtatish;

– jinoiy faoliyatni amalga oshirishdan olingan daromadlarni qonuniylashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqalishini moliyalashtirish maqsadida Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallarini qo‘llashning asoslangan shubhalari holatida Universal shartnomaning to‘liq yoki uning qismini bajarilishidan voz kechish.

4.4.20. Majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasini to‘liq yoki qismini bajarilishidan va Qonunchilik va Universal shartnoma bilan ko‘zda tutilgan muddatlarda bir tomonlama tartibda voz kechish:

– jinoiy faoliyatni amalga oshirishdan olingan daromadlarni qonuniylashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqalishini moliyalashtirish maqsadida Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallarini qo‘llashning asoslangan shubhalari holatida;

– agar Mijoz - AQShning soliq rezidenti uni xorijiy soliq to‘lovchi sifatida identifikatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etmagan va/yoki IRS (AQSh soliq organlari)ga ma’lumotlarni uzatishga o‘z roziligini taqdim etmagan (rozilikni taqdim etilishini rad qilgan) holatda.

**4.5. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:**

4.5.1. Mijoz ulangan majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasining shartlari asosida, keyingi hisoblarni ochish,Internet-Bank,Mobil Bank yoki Masofaviy xizmat ko‘rsatishning boshqa kanalini qo‘llab, muvofiq Arizani tuzish.

4.5.2. Bankga murojaat qilgan holda Autentifikatsion ma’lumotlarni o‘zgartirish.

4.5.3. Qo‘shimcha servislarni bog‘lab/uzib (Bankda bunday xizmatning mavjudligida) yoki Tarif rejasi doirasida ulangan xizmatlardan voz kechib, o‘rnatilgan Tarif rejalari chegarasida majmuaviy bank xizmat ko‘rsatishi shartlarini tanlash.

**4.6. Majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning xodimlari, qo‘llaniluvchi qonunchilik tomonidan korrupsion deb tasniflanuvchi harakatlarni, jumladan, pora berish, uni olish, poraxo‘rlikda vositachilik qilish, xizmat holati yoki vakolatlarini suiiste’mol qilish, tijorat pora berish bilan sotib olishni amalga oshirmayotganida, bevosita yoki bilvosita, har qanday shaklda, o‘zi yoki uchinchi shaxslar uchun biron bir noqonuniy ustunliklarni va foydalarni olish maqsadida ushbu shaxslarning harakatlariga yoki qarorlariga ta’sir ko‘rsatish uchun har qanday shaxslarga huquqlarni, xizmatlarni, mulklarni taqdim etilishini sovg‘alar ko‘rinishida biron bir pul mablag‘larini to‘lamaydi, to‘lashni taklif qilmaydi va to‘lanishiga yoki boyliklarni uzatishga ruxsat bermaydi.**

## 5. MASOFAVIY XIZMAT KO‘RSATISHNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

**5.1. Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallariga quyidagilar tegishlidir:**

5.1.1. Telefon bo‘yicha xizmat ko‘rsatishni amalga oshiruvchi Bankning Kontakt-markazi;

5.1.2. Internet-Bank, Mobil Bank va Internetda xizmat ko‘rsatishning boshqa kanallari, jumladan Internet tarmog‘ida Hamkorlarning saytlarida joylashtirilgan ilovalar, va Xabarlarni uzatish servislari;

5.1.3. Amaliyotlar haqida Xabardor qilish, Ogohlantirish

**5.2.** Masofaviy xizmat ko‘rsatish doirasida Bank Mijozga Universal shartnoma/Arizaga bog‘lanish haqidagi Arizada ko‘rsatilgan va/yoki keyinchalik Mijoz tomonidan Bankga majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasi bilan ko‘zda tutilgan tartibda taqdim etilgan Mijozning kontakt ma’lumotlari bo‘yicha ma’lumotlarni yuborib, uni taqdim etadi.

**5.3.** Mijoz, jumladan, Bankning hamkorlari tomonidan amaliyotlarni amalga oshirish va xizmatlarni ko‘rsatish uchun Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari orqali Autentifikatsion ma’lumotlar va/yoki shaxsan imzolashning o‘xshashi hisoblanuvchi ERI qo‘llaniladi. Mijoz tomonidan masofadan turib xizmat ko‘rsatish kanallari orqali Bankka yoki Bank vakiliga, shu jumladan Bankning kontakt markaziga Autentifikatsion ma’lumotlarning, ERIning to‘g‘ri kiritilishi va taqdim etilishidan (xabar berilishidan) so‘ng amalga oshirilgan harakatlar Mijoz o‘zi tomonidan amalga oshirilgan harakatlar deb e’tirof etiladi. Bunda, Autentifikatsiya ma’lumotlari va kirish Kodlari yoki ERI to‘g‘ri kiritilishi yoki taqdim etilishidan (xabar berilishidan) so‘ng, Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari orqali hujjatlarni shakllantirilishi va jo‘natilishi, shuningdek, ushbu elektron hujjatlarni imzolash deb tan olinadi.

Autentifikatsion ma’lumotlar yoki kirish Kodlari ERI yordamida imzolangan elektron hujjatning Mijoz tomonidan yaratilishi, imzolanishi va Bankga yuborilishi, hamda ERIni tekshirish va Bank va Mijozning boshqa harakatlari dalili Bank tomonidan qayd etiladi va uning elektron jurnallarida saqlanadi. Elektron jurnallardan ko‘chirmalar va log-fayllar (ya’ni, Masofaviy xizmat ko‘rsatish yordamida Mijoz tomonidan amalga oshiriluvchi harakatlar va hodisalar qayd etiluvchi, Bankning dasturiy-texnika vositalari tomonidan yaratiluvchi hisobotlar), jumladan Mijozga bir martalik kirish Kodining yuborilganligini, ERI qo‘llash bilan elektron hujjatning Mijoz tomonidan imzolanishi isboti, hamda elektron hujjatning mazmunining isboti bo‘ladigan tortishuvli holatlarni hal qilishda davlat va sud organlariga, hamda boshqa tashkilotlarga taqdim etish uchun yetarli va erishimli hisoblanadi.

**5.4.** Mijoz Autentifikatsion ma’lumotlarni qo‘llash bilan amalga oshirilgan amaliyotlar Mijoz tomonidan amalga oshirilgan deb tan olinishi va bahslashishga o‘rin yo‘qligi bilan rozilik bildiradi, qonunchilikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘zda tutilgan holatlar bundan mustasno.

**5.5.** Bank texnik imkoniyatlar mavjud bo‘lmaganida, Mijozning pul mablag‘lariga va ma’lumotlariga vakolatlanmagan shaxslarning kirganligiga gumon asoslari mavjduligida, hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasi va Bankning ichki hujjatlari bilan ko‘zda tutilgan holatlarda Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari orqali taqdim etilayotgan xizmatlarning ko‘rsatilishiga cheklovlar o‘rnatishga haqli.

i a a

a ı a

**5.6.** Mijoz Bank aloqa asbob-uskunalari va/yoki aloqa tarmoqlari ishida buzilish bilan bog‘liq bo‘lgan Masofaviy xizmat ko‘rsatishdagi uzilishlar va to‘xtalishlar va ushbu munosabat bilan yuzaga kelgan chiqimlar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olmasligi bilan rozilik bildiradi. 1

**5.7.** Bankning so‘rovi bo‘yicha Mijoz tomonidan yuborilgan ma’lumotlarning va hujjatlarning, hamda Hisob raqami, omonat Hisobi bo‘yicha amaliyotlarni o‘tkazishga

. . l ı a ı n

etilishidagi holatlardan tashqari) va shartnomaga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar, jumladan unga Ilovalar, Ilovalarning soni va tarkibi, hamda bank mahsulini taqdim etilishi to‘g‘risida shartnoma va Bank Tariflari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 382-moddasi 1-bandi bilan muvofiqlikda faqat Bank tomonidan tashabbus etilishi mumkin.

**6.2.** Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligining me’yorlarini o‘zgartirilishi,To‘lov tizimlarining qoidalarini Bank tomonidan yangi mahsulotlarni,xizmatlarni taqdim etilishi va Bankning ixtiyori bo‘yicha bank mahsulotlarini taqdim etilish texnologiyasining o‘zgartirilishi munosabati bilan Universal shartnomaga, jumladan Universal shartnomaning Ilovalariga, bank mahsulotini taqdim etish to‘g‘risida Shartnomaga va Bank Tariflariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalarni kiritish huquqiga ega ekanligi bilan kelishib olishdi.

**6.3.** Bank o‘zgartirishlar va/yoki qo‘shimchalarni kiritishning taxminiy sanasigacha kamida 10 (o‘n) kalendar kunda Universal shartnoma, Universal shartnomaga Ilovalar ("Umumiy shartlar") va Bankning Tariflarining yangi (o‘zgartirilgan) tahriri haqidagi xabarnomani Mijozga yuborish yo‘li bilan o‘zgartirishlar yoki qo‘shimchalar kiritadi, Amaldagi qonunchilikning shartlangan yoki yangi bank mahsulotini tatbiq qilish yoki Bankning nomlanishini yoki yuridik pochta manzilini o‘zgartirish, ularda xabardor qilish muddati 1 (bir) kalendar kundan kam bo‘lmagan muddatni tashkil qiladi, quyidagi usullardan biron biri bilan (Bankning tanlovi bo‘yicha) o‘zgartirishlarni va qo‘shimchalarni kiritish holatlaridan tashqari:

- Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari yordamida, jumladan muvofiq elektron bildirgi yuborish yo‘li bilan;
- Bankning Internetdagi www.anorbank.uz saytida Universal shartnomaning muvofiq e’lon qilinishi va uning yangi tahririni (o‘zgartirishlar/qo‘shimchalar) joylashtirish yo‘li bilan.

**6.4.** Agar Universal shartnoma shartlari bilan muvofiqlikda kiritilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalarning kuchga kirishi sanasigacha bank tomonidan Mijozdan Universal shartnomani bekor qilish haqidagi yozma ariza olinmagan holatda, ushbu holat kiritiluvchi o‘zgartirishlar va/yoki qo‘shimchalar bilan Mijozning so‘zsiz va to‘liq roziligi hisoblanadi. Bunda, Universal shartnomani o‘zgartirish va unga qo‘shimchalar kiritish kelishuvining yozma shakli O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366-moddasi bilan muvofiqlikda rioya etilgan deb hisoblanadi.

**6.5.** Universal shartnomaning o‘zgartirilgan va qo‘shimchalar kiritilganlik bilan Mijozning roziligini qo‘shimcha tasdig‘i bo‘lib Mijoz tomonidan amaliyotlarni amalga oshirish Universal shartnomaning Bank Tariflarining o‘zgarishlarini va qo‘shimchalarini yangi tahririni kuchga kirishidan keyin Arizani kiritish hisoblanadi.

**6.6.** Majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasiga (Umumiy shartlar bilan muvofiqlikda alohida shartnomalarga) har qanday o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar, jumladan Bank tomonidan tasdiqlangan Universal shartnomaning, Umumiy shartlarning va Tariflarning yangi tahriri ularning kuchga kirish sanasidan boshlab Universal shartnomaga, Umumiy shartlarga bog‘langan, jumladan o‘zgartirishlar kuchga kirish sanasidan avval Universal shartnomaga, Umumiy shartlarga bog‘langan barcha shaxslarga teng tarqaladi.

**6.7.** Mijoz majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasini, jumladan, majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasiga kiritilgan o‘zgartirishlar bilan Mijozning rozilik bo‘lmaslik sababi bo‘yicha, har qanday paytda bir tomonlama suddan tashqari tartibda bekor qilish huquqiga ega.

**6.8.** Majmuaviy xizmat ko‘rsatish shartnomasini bekor qilinishi Bankda ochilgan Mijozning Hisob raqami(lari)ning, omonat Hisobi(lari)ni, jumladan, Korporativ kartaga xizmat ko‘rsatish uchun ochilgan Hisob raqamlarining yopilishi uchun asos hisoblanadi.

**6.9.** Mijoz tomonidan Shartnomaning bekor qilinishi Bankning majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasini bir tomonlama suddan tashqari bekor qilinishiga huquq hisoblanadi.

**6.10.** Majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasini bekor qilish uchun Mijoz Bankga Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari yordamida oddiy elektron xabar ko‘rinishida majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasini bekor qilish haqidagi arizani yuboradi. Mijoz majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasini bekor qilish haqidagi arizani yuborgan kunda, Mijoz, shuningdek, Bankda ochilgan barcha Hisob raqamlarini, omonatlar Hisoblarini yopish haqidagi Mijozning vakolatlangan shaxsini Elektron raqamli imzosiga ega bo‘lgan arizani, hamda Korporativ kartalarga xizmat ko‘rsatish uchun ochilgan Hisob raqamlarini yopish haqidagi arizani yuboradi. Bankdan yuqorida ko‘rsatilgan arizalar Mijozdan kelmayotganligi shubhasi mavjud bo‘lgan holatda, Bank qog‘oz

i a a ı n
tashuvchisida arizani so‘rab olishga haqli, Mijoz esa Bankning ofisida qog‘oz tashuvchisida arizani taqdim etishga majbur bo‘ladi.

Mijozning Korporativ kartalari Bank tomonidan bloklanadi va Bank tomonidan majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasini bekor qilish haqidagi arizani olinish sanasiga haqiqiy emasligini e’lon qiladi.

**6.11.** Majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasining amal qilishi Mijozning oxirgi hisobini yopilish paytiga tugatiladi. Mijozda uning oxirgi hisobini yopilish paytiga Bank oldida majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasi (Shartnoma) bo‘yicha so‘ndirilmagan qarzdorligi mavjud bo‘lgan holatda majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasining amal qilishi Mijoz tomonidan shunday qarzdorlikni to‘liq so‘ndirilishidan keyin tugatiladi. Shartnomani bekor qilish va/yoki Hisob raqamini yopilishi holatida xizmat uchun Mijoz tomonidan oldindan to‘langan komissiyalar Bank tomonidan qaytarib berilmaydi.

**6.12.** Bank majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasini (Shartnomani) suddan tashqari bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli, bunga Mijoz quyidagi holatlarda o‘z roziligini beradi:

6.12.1. Jinoiy faoliyatni amalga oshirishdan olingan daromadlarni qonuniylashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqalishini moliyalashtirish maqsadida Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallarini qo‘llashning asoslangan shubhalari holatida. Bunday holatda majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasi Bank tashabbusi bo‘yicha majmuaviy xizmat ko‘rsatish shartnomasini bekor qilish haqidagi xabarnoma Bank tomonidan Mijozga yuborilish kunidan 3 (uch) kalendar kun yakunlanishi bo‘yicha bekor qilingan hisoblanadi.

1.10. Agar kelib tushgan pul mablagʻlarining qiymati (topshiriqnomalar) Reestrning qiymatiga muvofiq kelmasa, u holda Karta hisobiga oʻtkazmalar amalga oshirilmaydi, Reestr esa bekor qilinadi. Besh ish kuni davomida toʻgʻri Reestrning kelib tushmasligida pul mablagʻlari kelib tushgan Mijozning hisob raqamiga pul mablagʻlari qaytarib beriladi.

1.11. Agar Reestr ichidagi yakuniy qiymat Reestr satrlarining qiymatiga muvofiq kelmasa, u holda Karta hisobiga oʻtkazmalar amalga oshirilmaydi, Reestr esa bekor qilinadi. Besh ish kuni davomida toʻgʻri Reestrning kelib tushmasligida pul mablagʻlari kelib tushgan Mijozning hisob raqamiga pul mablagʻlari qaytarib beriladi.

1.12. Agar kelib tushgan pul mablagʻlarining qiymati (topshiriqnomalar) Reestrning qiymatiga muvofiq kelsa, ammo Reestrga ishlov berishda quyidagi xatoliklar aniqlansa:

*«- oluvchining Karta hisobi topilmadi (ochilmagan, yopilgan);*

*- hisob raqami va hisob egasining nomi muvofiq emas»*,

Bank xatoliklarga ega boʻlmagan satrlar boʻyicha pul mablagʻlarini Xodimlarning Karta hisoblariga oʻtkazilishini amalga oshiradi, xatoliklari boʻlgan satrlar boʻyicha pul mablagʻlarni pul mablagʻlari kelib tushgan Mijozning hisob raqamiga qaytarib yuboradi.

## II. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

### 2.1. Mijozning huquq va majburiyatlari:

l a a ı a

2.1.1. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, majmuaviy xizmat ko‘rsatish shartnomasi va Bankning ichki hujjatlari bilan muvofiqlikda Bank tomonidan o‘rnatilgan ro‘yxatdagi zaruriy hujjatlarni Bankga taqdim etish.

2.1.2. Bankda Karta hisoblarini ochish va Hisob-kitob kartalarini olish imkoniyati haqida Xodimlarni xabardor qilish.

2.1.3. Tariflar bilan belgilab berilgan o‘lchamlarda va tartibda Bankga mukofotlarni o‘z vaqtida o‘tkazish.

2.1.4. Xodim ishdan bo‘shatilishi holatida shunday Xodimning ma’lumotlari bilan Ro‘yxatni ishdan bo‘shatilish sanasidan kechiktirmasdan 30 (o‘ttiz) kun mobaynida Bankga taqdim etish.

2.1.5. Majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasi bilan o‘rnatilgan tartibda imzolangan Reestrlarni Bankga taqdim etish.

2.1.6. Bankga pul mablag‘larini o‘tkazgunga qadar soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha barcha hisob-kitoblarni mustaqil tarzda amalga oshirish.

2.1.7. Ish haqi loyihasi Shartnomasini bajarish dalili bo‘yicha noaniqliklar/nomuvofiqliklarni tartiblashtirish maqsadida yangi Reestrni va/yoki qo‘shimcha ma’lumotlarni Bankga taqdim etish.

2.1.8. So‘rov bo‘yicha va Bank tomonidan o‘rnatilgan muddatda Ro‘yxatda Xodimlar haqidagi ma’lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni Bankga taqdim etish.

2.1.9. Internet-Bankda Ro‘yxatning o‘z vaqtida mavjud bo‘lishini ta’minlash.

2.1.10. Mijoz Reestrda Mijoz tomonidan ko‘rsatilgan rekvizitlar bo‘yicha Shartnomaning 1.1-bandiga binoan pul mablag‘larini o‘tkazish haqida Xodimning arizasini o‘zida mavjudligini kafolatlaydi.

**2.2. Bankning huquq va majburiyatlari:**

2.2.1. Xodimga Karta hisobini ochish va Bankda jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Universal shartnoma shartlari bilan muvofiqlikda Kartani taqdim etish.

2.2.2. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bankning ichki qoidalari va Bankda jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Universal shartnoma bilan muvofiqlikda Xodimga Kartani chiqarilishida va unga Karta hisobini ochishga rad etishi.

2.2.3. Rasmiylashtirilgan bank kartalarini Xodimlarga topshirish. Bunda, Bank kartalarni Xodimlarga faollashtirilmagan holatda topshiradi. Mijoz xodimi Bankda jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Universal shartnoma bilan muvofiqlikda kartalarning faollashtirilishini mustaqil amalga oshiradi.

Mazkur Umumiy shartlar bilan o‘rnatilgan tartibda Reestr bilan muvofiqlikda Xodimning Karta hisobiga pul mablag‘larining o‘tkazilishini amalga oshirish.

2.2.4. Bankning korrespondentlik hisobiga pul mablag‘larining kelib tushish va Bank tomonidan Reestrli topshiriqnomani olish va Tariflar bilan o‘rnatilgan mukofotlarni Mijoz tomonidan to‘lanishi kunidan keyin keluvchi ish kunidan kechiktirmasdan Xodimning Karta hisobiga pul mablag‘larini o‘tkazish.

2.2.5. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasi bilan ko‘zda tutilgan holatlarda ish haqi loyihasi Shartnomasini bir tomonlama tartibda bekor qilish.

2.2.6. Mijozni oldindan ogohlantirmasdan ish haqi loyihasi Shartnomasi doirasida taqdim etiluvchi xizmatlarni ko‘rsatishga Internet-Bankga kirishni bloklash yoki cheklash, xizmatlar tarkibini o‘zgartirish va cheklovlarni o‘rnatish.

2.2.7. Bank amaliyotlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lgan holatda, hamda topshiriqnomani yoki Reestrni tegishli bo‘lmagan tarzda rasmiylashtirilishi holatida topshiriqnomani ijroga qabul qilmaslik huquqiga ega.

## III. Tomonlarning javobgarligi

1 a 1 a

3.1. Bank majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasi shartlari bilan ko‘zda tutilgan protseduralarni qo‘llash bilan vakolatlanmagan shaxslar tomonidan topshiriqlarni berish dalilini aniqlay olmagan o‘sha holatlarda, Bank vakolatlanmagan shaxslar tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish oqibatlari uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

3.2. Bank, agar tutilish Bankga Mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda noaniqliklar bilan chaqirilgan, yoki Reestrning tutilib qolishi, xatoliklar va Reestrda hokazolar holatida, Xodimning Karta hisobiga qiymatlarni o‘tkazish muddatlarini buzganlik uchun Mijoz va Xodimlar oldida javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

3.3. Bank Xodimning Karta hisobiga o‘tkazish uchun Mijoz tomonidan taqdim etilgan qiymatlar bo‘yicha Mijoz va Xodim o‘rtasida tortishuvlar va kelishmovchiliklar bo‘yicha javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi. Ish haqi loyihasi Shartnomasi joriy yilning oxirgi kalendar kunigacha tuziladi. Agar Tomonlarning hech biri Shartnomani uzaytirishni rad etish haqida bayonot bermagan holatda Shartnomaning amal qilish muddati keyingi yilga uzaytiriladi. Uzaytirish bir necha marta amalga oshirilishi mumkin.

3.4. Shartnoma bir tomonlama tartibda istalgan Tomon bilan bekor qilinishi mumkin, bunda, boshqa Tomonning Shartnoma amal qilishini muddatidan avval bekor qilinishi haqidagi xabarnomasini Tomon olgan kunidan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kun o‘tishi bo‘yicha Shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

3.5. Mijoz tomonidan majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasi shartlarini va/yoki mazkur Umumiy shartlar buzilgan holatda Bank taxmin qilinuvchi bekor qilish sanasigacha 1 (bir) ish kunidan oldin Mijozni xabardor qilib, istalgan vaqtda bir tomonlama tartibda ish haqi loyihasi Shartnomasini bekor qilishga haqli.

## IV. O‘zgartirishlar va qo‘shimchalarni kiritish tartibi

4.1. Ish haqi loyihasiga va uning tarkibiy qismlariga o‘zgartirishlar kiritish, jumladan, Bank tomonidan mazkur Umumiy shartlarning, Tariflarning, Arizaning yangi tahririni tasdiqlanishi majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasi va Umumiy shartlar bilan o‘rnatiluvchi xususiyatlarni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan ko‘zda tutilgan tartibda Bank tomonidan amalga oshiriladi.

## V. Boshqa shartlar

5.1. Mijoz shaxsiy ma’lumotlari Bank tomonidan Mijozdan olinadigan hujjatlarda, bunday jismoniy shaxslarning shaxsiy ma’lumotlarga ishlov berish, shaxsga oid ma’lumotlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq shakl va mazmunga muvofiq bo‘lishi mumkin bo‘lgan jismoniy shaxslarning yozma roziligini (keyingi o‘rinlarda "shaxsiy ma’lumotlar subyekti") olganligini tasdiqlaydi. Bunda, Mijoz, o‘z navbatida, Bankga o‘z roziligini va Shartnomani ijro etish maqsadida shaxsiy ma’lumotlarning ko‘rsatib o‘tilgan subyektlarining shaxsiy ma’lumotlariga ishlov berishga muvofiq huquqlarni taqdim etadi.

5.2. Mazkur Umumiy shartlarning 5.1-bandini bajarish maqsadida, shaxsiy ma’lumotlarga "ishlov berish", boshqalardan tashqari, ularni yig‘ish, yozish, tizimlashtirish, to‘ldirish, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o‘zgartirish), chiqarib olish, qo‘llash, uzatish, jumladan, bunday shaxsiy ma’lumotlarning affillangan yoki Bank bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslarga, hamda ko‘rsatib o‘tilgan shaxslarning affillangan yoki ular bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslariga transchegaraviy uzatilishi (tarqatilishi, taqdim etilishi, kirish), shaxsiy ma’lumotlarga ishlov berishda ularning maxfiyligini va xavfsizligini ta’minlash shartida shaxsiy ma’lumotlarni shaxssizlash, bloklash, o‘chirib yuborish, yo‘q qilishni anglatadi.

5.3. Shaxsiy ma’lumotlar subyektining shaxsiy ma’lumotlari Bank tomonidan avtomatlashtirish vositalarini qo‘llash bilan yoki bunday vositalarni qo‘llashsiz ishlov berilishi mumkin (aralash ishlov berish). Shartnoma bilan muvofiqlikda shaxsiy ma’lumotlarga ishlov berish Bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Shartnoma, Bankning ichki

shartlari va mijozlarni identifikatsiya qilish va o‘rganish qoidalari talablarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday huquq va majburiyatlarni amalga oshirish hisoblanadi. Bank tomonidan ishlov beriluvchi shaxsiy ma’lumotlar subyektlarining shaxsiy ma’lumotlari yo‘q qilinishi yoki ishlov berishning ko‘rsatilgan maqsadlariga erishish bo‘yicha yoki ushbu maqsadlarga erishishda zarurat bo‘lmay qolgan holatda shaxssizlantirilishi kerak, agar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan boshqa shart ko‘zda tutilmagan bo‘lsa.

5.4. Mazkur Umumiy shartlardan kelib chiquvchi tortishuvlar va kelishmovchiliklar Universal shartnomada ko‘zda tutilgan tartibda hal etiladi.

5.5. Mazkur Umumiy shartlar bilan ko‘zda tutilmagan holatlarda, Tomonlar Universal shartnomaning shartlari bilan rahbarlik qiladi.

## Bank omonatlarini ochish, ularga xizmat ko‘rsatish va ularni yopishning UMUMIY SHARTLARI

### Atamalar va tushunchalar

Mazkur bank omonatlarini ochish, ularga xizmat ko‘rsatish va ularni yopishning Umumiy shartlarida (keyingi o‘rinlarda "Umumiy shartlar") quyidagi tushunchalar va atamalar qo‘llaniladi:

**Omonatchi** - mazkur Umumiy shartlarga binoan bankda erkin pul mablag‘larini joylashtiruvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor;

**Tomonlar -** Bank va Omonatchi;

**Tizim** - bank mijozlari uchun masofaviy bank xizmatlarining kanallari (mobil ilova, veb platforma va boshqalar);

**Talab qilib olgunga qadar depozit hisob** - Omonatchining birinchi talabi bo‘yicha beriluvchi yoki o‘tkaziluvchi uning mablag‘lari hisobi yuritiluvchi hisob.

**Bayram va/yoki ishlanmaydigan (dam olish) kunlari** - Bank bank faoliyatini amalga oshirmaydigan kalendar kunlar;

**Bank hisobi** - bank hisobi shartnomasi tuzilishi natijasida Bank va Mijoz o‘rtasida hosil bo‘ladigan munosabatlarni amalga oshirish vositasi, u bo‘yicha Bank Mijozning hisobiga kelib tushuvchi pul mablag‘larini qabul qilish va o‘tkazish, hisobdan muvofiq qiymatlarni o‘tkazish va berish haqida Mijozning topshiriqlarini bajarish va hisob bo‘yicha boshqa amaliyotlarni o‘tkazishga majburiyatni o‘z zimmasiga oladi.

### I. Asosiy qoidalar

**1.1.** Bank omonatlarini ochish, ularga xizmat ko‘rsatish va ularni yopishning mazkur Umumiy shartlari Bankda ochilgan talab qilib olguncha Depozit hisobning egasi hisoblanuvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor bilan bank omonati Shartnomasining umumiy shartlarini belgilab beruvchi hujjat hisoblanadi.

**1.2.** Bank omonati Shartnomasining tuzilishi matni mazkur Umumiy shartlar va Bank Tariflari bilan Mijozning roziligini saqlovchi elektron xabar ko‘rinishida kiritilgan Mijozning Arizasini (1-Ilova) Bank tomonidan aksepti yo‘li bilan amalga oshiriladi.

**1.3.** Omonatchi Omonat qiymatini belgilab beruvchi va Omonatga o‘zining Bank hisobidan (hisob raqamidan) pul mablag‘larini chegirishga topshiriqni berayotgan Tizim tomonidan shakllantiriluvchi Ariza.

**1.4.** Mijoz Tizimda tanlovchi Omonat shartlari, shuningdek, Arizaning va bank omonati Shartnomasining ajralmas qismi hisoblanadi.

**1.5.** Omonatga pul mablag‘larining o‘tkazilishi faqat ochiluvchi Omonatning valyutasiga muvofiq keluvchi depozit hisobdan imkoni bor.

**1.6.** Bank omonati Shartnomasi Omonatga pul mablag‘ining kelib tushish paytidan boshlab Bank va Mijoz o‘rtasida tuzilgan hisoblanadi.

**1.7.** Bank omonati Shartnomasini tuzilganligini va Omonatga pul mablag‘larini o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat bo‘lib Tizim tomonidan shakllantiriluvchi tasdiq xizmat

qiladi. Omonatchi Tizimda Omonatni ochish haqida Tizimda ro‘yxatdan o‘tkazilgan mobil telefoni raqamiga kod ko‘rinishida tasdiqlovchi SMS-xabarni oladi.

## II. Shartnoma predmeti

**2.1.** Omonatchi pul mablag‘larini omonatga kiritadi, Bank esa ularni Omonatchining bank hisobidan qo‘shib hisoblash yo‘li bilan qabul qiladi va omonatni qaytarishga va Bank omonati shartnomasining ajralmas qismi hisoblanuvchi Omonat shartlari bilan ko‘zda tutilgan shartlarda va tartiblarda foizlarni to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Omonat shartlarida omonatning nomlanishi, turi (muddatli,jamg‘arma) va uning valyutasi, Omonat muddati, foiz stavkasi, Omonatning minimal qiymati, foizlarni to‘lash tartibi, Omonatni muddatidan avval yopilish shartlari va boshqa shartlar ko‘rsatiladi.

**2.2.** Omonatni hisobga olish depozit hisobining rekvizitlari Tizimning "Depozitlar" bo‘limida saqlanadi va o‘z ichiga Omonat bo‘yicha quyidagi ma’lumotlarni kiritadi: Omonat nomlanishi, Omonatning turi va valyutasi, Omonat ochilgan Bankning nomlanishi, Omonatni ochish sanasi va qaytarish sanasi, Omonatning dastlabki qiymatlari, Omonat bo‘yicha yillik foiz stavkasi, Omonatning joriy qiymati, joriy qo‘shib hisoblangan foizlar, bank hisobining raqami, foizlarni qo‘shib hisoblash uchun hisob, omonatni yopish muddatigacha kunlarning qolgan miqdori.

## III. Foizlarni qo‘shib hisoblash va to‘lash tartibi

**3.1.** O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini 764-moddasiga muvofiq, Bank Omonatchining depozit omonatini qaytarilishiga yoki boshqa asoslar bo‘yicha Omonatchining hisobidan uning chegirib qolinishi kunigacha Bankga depozit omonatining kelib tushish kunidan keyin keluvchi kundan boshlab bank omonati Shartnomasi bilan o‘rnatilgan foizlarni qo‘shib o‘tkazadi.

**3.2.** To‘lovga foizlarning qiymatlarini hisob-kitobi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan muvofiqlikda amalga oshiriladi. Foizlar to‘lanishi har oyning 25-sanasiga har oy amalga oshiriladi. Agar foizlarni to‘lash kuni dam olish yoki bayram kuniga to‘g‘ri kelgan holatda, foizlarning to‘lanishi dam olish kunlaridan keyin keluvchi birinchi ish kuniga ko‘chirib o‘tkaziladi:

3.2.1. Omonatning muddatidan avval yopilishi holatida foizlarning qayta hisoblanishi Omonat shartlari bilan muvofiqlikda amalga oshiriladi.

**3.3.** Omonatdan (depozitdan) olingan daromadlarning soliqqa tortilishi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan muvofiqlikda amalga oshiriladi.

**3.4.** Omonatda Omonatchining hisoblarida mavjud bo‘lgan pul mablag‘lariga hibsning tayinlanishi yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan ko‘zda tutilgan holatlarda Omonatchining hisoblari bo‘yicha amaliyotlarning to‘xtatilishi holatida, Omonat bo‘yicha foizlarning qo‘shib hisoblanishi cheklovlar olib tashlanuvchi paytgacha to‘xtatib qo‘yiladi.

**3.5.** Omonatning shartlari haqidagi ma’lumot Bankning quyidagi manzilda joylashgan rasmiy saytiga joylashtiriladi: www.anorbank.uz.

## IV. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

**4.1.** Omonatchi quyidagi huquqlarga ega:

4.1.1. bir nechta Omonatlarni joylashtirish;

4.1.2. Masofaviy xizmat ko‘rsatish vositalarini qo‘llash bilan bank omonati Shartnomasiga qo‘shimcha kelishuvni tuzish yo‘li bilan Bankning roziligi bilan Omonat (depozit)ning muddatini uzaytirish, Omonatchida tayinlangan talablarni qoniqtirish uchun asosiy hisobda mablag‘larning yetarli bo‘lmaganligi, hibslarning va qonunchilikda o‘rnatilgan Omonatlarni

joylashtirishga boshqa cheklovlarni mavjudligi sababli 2-son Kartoteka shakllantirilgandagi holatlardan tashqari;

4.1.3. Omonatning to‘liq qiymatini muddatidan oldin chaqirib olish. Bunda, agar Omonatchi omonatni muddat tugagunga qadar qaytarib berishni talab qilish niyatida bo‘lsa, u o‘zining bu niyatidan Bankni Omonatni olishni mo‘ljallayotgan sanadan kamida 1 (bir) oy oldin xabardor qilishi shart. Xabarnoma Tizim tomonidan belgilangan harakatlarni bajarish yo‘li bilan Tizim yordamida Bankga yuborilgan bo‘lishi mumkin (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 762-modda 5-qismi).

**4.2.** Bank O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan muvofiqlikda shaxsiy maqsadlarini ta’minlash uchun Omonatchining pul mablag‘larini bank omonati Shartnomasining amal qilish muddati davomida idora qilish huquqiga ega.

**4.3.** Bank quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

4.3.1. Omonatga Omonatchining pul mablag‘larini qabul qilib oladi va mazkur Umumiy shartlar va amaldagi qonunchilikning talablari qoidalariga muvofiq o‘z majburiyatlarini bajaradi;

4.3.2. bank omonati Shartnomasi va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi shartlari bilan muvofiqlikda foizlarni o‘z vaqtida va to‘liq hajmda qo‘shib hisoblash;

4.3.3. depozitning muddati yakunlanish kunida Omonatchining hisob raqamiga Omonatning to‘liq qiymatini va berilishi kerak bo‘lgan foizlarning qiymatini chegirib o‘tkazishi kerak. Agar Omonat muddatining yakunlanishi munosabati bilan qaytarib berish kuni dam olish yoki bayram kuniga (ishlamaydigan kunga) to‘g‘ri kelgan holatda, Omonatning qaytarib berilishi dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan) kunlaridan keyingi birinchi ish kunida amalga oshiriladi;

4.3.4. tizimda omonatni muddatidan avval qaytarish haqida xabarnomani Omonatchidan olgan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kun davomida Omonat qiymatini qaytarish;

4.3.5. bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarning maxfiyligini kafolatlash. Bank sini tashkil qiluvchi ma’lumotlar faqat O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan ko‘zda tutilgan holatlarda taqdim etilishi mumkin.

**4.4.** Omonatchi Arizada ko‘rsatilgan Omonat qiymatini uni kiritishdan keyin 3 (uch) bank kuni davomida o‘tkazishga majburiyatni o‘z zimmasiga oladi**.**

**4.5.** Tomonlardan har biri bank omonati Shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini Tomonlar bilan bajarilishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan zaruriy ma’lumotlarni olish huquqiga ega.

**4.6.** Tomonlar bank omonati Shartnomasi va barcha keyingi o‘zgarishlarning, agar bundaylar o‘rin tutadigan bo‘lsa, shartlarga rioya qilish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

**4.7.** Omonatchi tomonidan Omonat qiymatini talab qilib olish yoki Omonat qiymatini, yoki uning qismini qonunchilik bilan o‘rnatilgan tartibida davlat yoki boshqa organlar tomonidan undirilishi va shunga o‘xshashlar holatida, bank omonati Shartnomasi avtomatik tarzda bekor qilingan deb hisoblanadi. Ushbu holatda foizlar Omonat shartnomasidan kelib chiqqan holda qo‘shib hisoblanadi.

## V. Tomonlarning javobgarligi

**5.1.** Bank tomonidan bank omonati Shartnomasi shartlari bilan muvofiqlikda Omonatchiga amalga oshiriluvchi to‘lovni amalga oshirish muddatining Bank tomonidan o‘tkazib yuborilishi holatida, Bank har bir o‘tkazib yuborilgan kunga o‘tkazib yuborilgan qiymatdan 0,1% o‘lchamda, ammo muddati o‘tkazib yuborilgan qiymatdan 10%dan ortiq bo‘lmagan jarimani Omonatchiga to‘lab beradi.

**5.2.** Jarimani to‘lanishi bank omonati Shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan Tomonlarni ozod qilmaydi.

## VI. Boshqa shartlar

**6.1.** Bank omonati Shartnomasi Omonatga Mijozdan pul mablag‘larining kelib tushish sanasidan kuchga kiradi va tizimda qo‘rsatilgan hisobdan Omonatning butun qiymatining Omonatchiga berilish paytidan o‘zining amal qilishini to‘xtatadi. Bank omonati Shartnomasining amal qilishini to‘xtatilishida Tizimda ko‘rsatilgan omonat bo‘yicha hisob yopiladi.

**6.2.** Hujjatning elektron versiyasi Bankning bazasida saqlanadi.

**6.3.** Bank omonati Shartnomasi bilan ko‘zda tutilmagan barcha boshqa holatlarda, Tomonlar Universal shartnomaning qoidalari va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan rahbarlik qiladi.

**6.4.** Mijoz bank omonati Shartnomasini tuzishga qonuniy vakolatlarga ega ekanligini va bank omonati Shartnomasini imzolagan shaxslar ko‘rsatilgan harakatlarni amalga oshirish uchun barcha huquq va ruxsatlarga ega ekanligini tasdiqlaydi va kafolatlaydi.

**6.5.** Mazkur Umumiy shartlardan kelib chiquvchi tortishuvlar va kelishmovchiliklar Universal shartnomada ko‘zda tutilgan tartibda hal etiladi.

**6.6.** Mazkur Umumiy shartlar bilan ko‘zda tutilmagan holatlarda, Tomonlar Universal shartnomaning shartlari bilan rahbarlik qiladi.

**Depozitni joylashtirishga**
**ARIZA**

Mazkur bilan tushunarli bo‘lgan "Bank omonatlarini ochish, ularga xizmat ko‘rsatish va ularni yopishning Umumiy shartlari", Tariflari bilan tanishib chiqilganligini tasdiqlaymiz.

Milliy valyutada muddatli/jamg‘arma depozit hisobini ochishni so‘raymiz.

| | |
|---|---|
| omonat nomlanishi: | ____________________________ |
| turi: | ____________________________ |
| omonat valyutasi: | so‘m |
| omonat qiymati: | ____________________________ |
| omonat bo‘yicha yillik foizli stavka: | ____________________________ |
| omonat muddati: | ____________________________ |

# e-POS terminal yordamida milliy valyutada xizmat ko‘rsatish va to‘lovlarni qabul qilishning UMUMIY SHARTLARI

## Atamalar va tushunchalar

**Mijoz** - O‘zbekiston Respublikasining to‘lov tizimlarini bank plastik kartalari yordamida, u tomonidan sotiluvchi tovarlar, xizmatlar, ishlar, raqamli/elektron kontent uchun elektron to‘lovlarni qabul qilishga texnik va yuridik imkon beruvchi axborot tizimlariga ega bo‘lgan xo‘jalik subyekti.

**To‘lovchi** - ishga layoqatli bo‘lgan jismoniy shaxs, jumladan, Mijoz tomonidan sotiluvchi tovar, xizmat, ish, raqamli,elektron kontentni to‘lovini amalga oshiruvchi bank plastik kartasi saqlovchisi.

**Servis** - internet-ekvayring bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatish, xususan, tovarlar, xizmatlar, ishlar, Mijozning raqamli/elektron kontenti uchun foydalanuvchining bank kartasi bilan amalga oshiriluvchi to‘lovlar bo‘yicha ma’lumotlarni qabul qilinishi va ularga ishlov berish uchun mo‘ljallangan.

**Savdo ma’lumotining parametrlari** - bu Foydalanuvchining bank plastik kartasidan elektron to‘lovlarga ishlov berilish tomonidan amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumot.

**Bank (plastik) kartasi** - O‘zbekiston Respublikasi banki bilan emissiya qilingan va bank hisobi (karta-hisobi) bo‘yicha uning saqlovchisiga amaliyotni o‘tkazish imkoniyatini ta’minlovchi, onlayn-rejimda ishlovchi to‘lov kartasi.

**Merchant API** - quyidagilar yordamida Foydalanuvchilardan (sotuvchilardan, to‘lovchilardan, iste’molchilardan) Mijozlarga (Sotuvchilarga/internet-do‘konlarga, xizmatlar yetkazib beruvchilariga) to‘lovlarni qabul qilish imkonini beruvchi dasturiy interfeys:

- bank kartalari;
- darhol to‘lov terminallari orqali to‘lovlar;
- IOS va Android uchun ilovalar.
- WEB-Ilovalar.

**Merchant kabineti** - veb-ilova bo‘lib, u Mijozga to‘lov ma’lumotiga kirishni olish, hamda statistikani ko‘zdan kechirish, hisobotlarni shakllantirish va virtual kassalarni boshqarish imkoinini beradi.

**E-POS Terminal** - ABT (Avtomatlashtirilgan Bank Tizimi) bank tizimida ro‘yxatdan o‘tkaziluvchi Mijozning (tovarlar va xizmatlar,ishlar yetkazib beruvchisining) virtual terminali.

## I. Asosiy qoidalar

1.1. Mazkur e-POS terminali yordamida milliy valyutada xizmatlar ko‘rsatish va to‘lovlarni qabul qilish Umumiy shartlar (keyingi o‘rinlarda "Umumiy shartlar") bank kartalaridan elektron to‘lovlar bo‘yicha ma’lumotlarga ishlov berishda Tomonlarning o‘zaro harakatlar protsedurasini va e-POS terminali yordamida elektron to‘lovlar bo‘yicha ma’lumotlarni qabul qilish va ularga ishlov berish bo‘yicha Shartnomani tuzishni tartiblashtiradi.

1.2. Bank, Mijoz tomonidan to‘lovlar shartida, o‘z zimmasiga quyidagi xizmatlarni (keyingi o‘rinlarda - Xizmatlar) ko‘rsatishni oladi:

- tovarlar va Mijozning xizmatlari,ishlari uchun To‘lovchining bank kartasidan elektron to‘lovlar bo‘yicha ma’lumotlarni qabul qilish va ularga ishlov berish uchun Servisda Mijozni ro‘yxatdan o‘tkazish;

- Xizmatlarni ko‘rsatish maqsadida ochiladigan Mijozning e-POSini ro‘yxatdan o‘tkazish va unga xizmat ko‘rsatish;

- Mijozning hisob raqamiga pul mablag‘larining o‘z vaqtida va to‘liq kelib tushishini ta’minlash.

1.3. Servisda ro‘yxatdan o‘tish uchun Mijoz masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari orqali arizani taqdim etadi, hamda mazkur Umumiy shartlarga 1-Ilovaga binoan "Korxona so‘rovnomasi" ma’lumotlarini taqdim qiladi.

1.4. Xizmatlar narxi E-POS Terminali yordamida muvaffaqiyatli ishlov berilgan va Mijozning hisob raqamiga o‘tkazilishi kerak bo‘lgan har bir to‘lovning qiymatidan Bank tomonidan ushlab qolinadi.

## II. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

**2.1. Bankning huquq va majburiyatlari:**

2.1.1. Identifikatsiya protseduralari o‘tilgandan keyin kechiktirmasdan 1 (bir) ish kuni muddatda Mijozni Servisda ro‘yxatdan o‘tkazish. Bunda, Mijozning texnik integratsiyasi muddati asbob-uskunalarning (qurilmalar, billing, DT va boshqa texnik instrumentlarning) texnik imkoniyatlari bilan ifodalanadi.

2.1.2. Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini amalga oshirish maqsadida Mijozning e-POS bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish va unga xizmat ko‘rsatilishini ta’minlash.

2.1.3. Mijozning foydasiga To‘lovchilardan olingan pul mablag‘larini o‘z vaqtida va to‘liq qo‘shilishini ta’minlash.

2.1.4. Shartnoma doirasida olingan savdo ma’lumotining parametrlari maxfiyligini saqlash.

2.1.5. Ma’lumotlarni uzatish kanallarining xavfsizligini, ma’lumotlar saqlanishi, butunligi va haqqoniyligini ta’minlash.

2.1.6. Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari, elektron pochta yoki rasmiy xabar yordamida Xizmatlar ko‘rsatilishi to‘xtatilganligi haqida, agar Mijoz xizmat ko‘rsatishning mazkur Umumiy shartlarini buzgan bo‘lsa yoki favqulodda vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan barcha sabablar bo‘yicha, hamda Shartnoma doirasida Mijozning manfaatlariga bevosita taalluqli bo‘lgan barcha dalillar haqida Mijozni oldindan ogohlantirish.

**2.2. Mijozning huquq va majburiyatlari:**

2.2.1. Mazkur Shartnoma bilan ko‘zda tutilgan majburiyatlarni bajarish, shartlar va qoidalarga rioya qilish.

2.2.2. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, jumladan elektron tijorat sohasidagi talablarga qat’iy muvofiqlikda harakat qilish.

2.2.3. Savdo ma’lumoti Parametrlarini, hamda Servis bilan ishlash qoidalarini qabul qilish, tekshirish va yuborishga texnik talablar bilan qat’iy muvofiqlikda harakatlarni olib borish.

**2.3. Bank quyidagi huquqlarga ega:**

2.3.1 Mazkur Shartnomaning shartlarini Mijoz tomonidan buzilishi holatida Xizmatlar taqdim etilishini bir tomonlama tartibda to‘xtatish.

2.3.2. Quyidagi holatlarda Mijozga Xizmatni taqdim etilishini rad etishi:

- g‘ayrioddiy amaliyotlar alomatlariga ega bo‘lgan yoki Bank uchun obro‘-e’tibor yoki moliyaviy xavflarni keltiruvchi Mijozning amaliyotlarini aniqlash;

- amaldagi qonunchilik, jumladan, jinoyat faoliyatidan olingan daromadlarni qonuniylashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqalishini

moliyalashtirishga qarshi harakatlar bo‘yicha qoidalarning talablarini buzish dalillarini aniqlashtirish.

**2.4. Mijoz quyidagi huquqlarga ega**:

2.4.1. O‘zbekiston Respublikasi ijro organlari, sud yoki qonunchilik hokimiyati tomonidan kiritiluvchi ehtimolli cheklovlarni hisobga olgan holda mazkur shartlar bilan ko‘zda tutilgan sifatli va uzluksiz Xizmatlaridan foydalanish.

2.4.2. Servisning huquqiy vorisini majburiy eslatish shartida o‘z savdolarini hajmini oshirish maqsadida Bank yoki Servis xizmatlarini reklama qilish.

## III.Tomonlar javobgarligi va nizolarni hal qilish tartibi

3.1. O‘z majburiyatlarini bajarmaslik yoki tegishli bo‘lmagan ravishda bajarish uchun, Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

3.2 Tomonlar, agar bajarmaslik uchinchi shaxslarning aybi bo‘yicha sodir bo‘lgan holatda, mazkur shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaslik uchun javobgarlikni o‘z zimmalariga olmaydi. Ushbu holatda, Tomonlar uchinchi shaxslar bilan, agar shundaylar mavjud bo‘lsa, shartnomaviy munosabatlardan foydalangan holda Xizmatlar taqdim etilishini uzilib qolish sabablarini bartaraf qilish uchun maksimal kuchlarni jalb qilishga majburiyatni o‘z zimmasiga oladi.

3.4. Bankning javobgarlik zonasi faqat mazkur shartlarda aks ettirilgan majburiyatlar bilan cheklangan. Bank Servisdagi texnik buzilishlar uchun, hamda qonunchilik va uchinchi tomonning aybi bo‘yicha o‘zi bilan Xizmat ko‘rsatilishini vaqtinchalik yoki to‘liq to‘xtatilishini olib kelgan boshqa cheklovlar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

3.5. Mazkur Umumiy shartlar bo‘yicha majburiyatlarni Tomon bilan bajarilmasligi yoki tegishli bo‘lmagan ravishda bajarilishi holatida jarimalarni to‘lash va zararlarni qoplash Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishdan Tomonlarni ozod etmaydi.

3.6. Mazkur Shartnomadan yoki uning munosabatida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan yoki vujudga kelgan, jumladan uni tuzish, o‘zgartirish, bajarish, buzish, bekor qilish, to‘xtatish, haqqoniyligi yoki tuzilmaganligiga (to‘liq yoki qisman) taalluqli bo‘lgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar yoki e’tirozlar Universal shartnomada o‘rnatilgan tartibda hal etilishi kerak.

## IV.Yakuniy qoidalar

5.1. Mazkur Umumiy shartlarga va uning tarkibiy qismlariga o‘zgartirishlar vyoki qo‘shimchalar,o‘zgartirishlar kiritish, jumladan, Bank tomonidan mazkur Umumiy shartlarning, Tariflarning, Arizaning yangi tahririni tasdiqlanishi majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasi yoki Umumiy shartlar bilan o‘rnatiluvchi xususiyatlarni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan ko‘zda tutilgan tartibda Bank tomonidan amalga oshiriladi.

5.2. Mazkur Umumiy shartlar bilan ko‘zda tutilmagan holatlarda, Tomonlar Universal shartnomaning shartlari bilan rahbarlik qiladi.

**e-POS terminal yordamida milliy valyutada**
**xizmat ko‘rsatish va to‘lovlarni qabul qilishning**
**Umumiy shartlariga**
**1-Ilova**

**KORXONA SO‘ROVNOMASI**

**Korxonaning nomlanishi** ________________________________________________

**Yuridik manzili:** ________________________________________________

**Mo'ljal:** ________________________________________________

**Rahbarning F.I.O.** ________________________________________________

**Rahbarning kontakt telefoni** ________________________________________________

**Buxgalterning F.I.O.** ________________________________________________

**Buxgalterning kontakt telefoni** ________________________________________________

**Korxonaning bank hisobi rekvizitlari**

**Faoliyat sohasi:**

________________________________________________

**Korxona rahbari** __________________________ (Imzo)

M.O'.

Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlarning haqqoniyligini tasdiqlayman va yuqorida sanab o'tilgan xodimlarni to'lovlarni qabul qilish bo'yicha Servisning xizmat ko'rsatishi uchun javobgar etib tayinlayman

___________________________

**"ANOR BANK" AJda**
**Yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga**
**majmuaviy bank xizmatlarini ko'rsatishning**
**Universal shartnomasiga**
**6-Ilova**

**POS terminal yordamida milliy valyutada xizmat ko‘rsatish va to‘lovlarni qabul qilishning UMUMIY SHARTLARI**

**Atamalar va tushunchalar**

| | |
|---|---|
| **Karta** | Bank yoki O‘zbekiston Respublikasining boshqa tijorat banki - kartalarga o‘zaro xizmat ko‘rsatishga Bank bilan muvofiq kelishuvga ega bo‘lgan BTT ishtirokchisi tomonidan emitatsiya qilingan amaldagi bank kartasi (jumladan, korporativ). |
| **Saqlovchi** | Kartani to‘lov vositasi kabi taqdim etuvchi jismoniy shaxs. Saqlovchining Ismi (yoki korporativ Kartochka uchun korxonaning nomlanishi) Kartaning yuz tomonida ko‘rsatilgan. |
| **POS terminal** | Karta Saqlovchilariga xizmat ko‘rsatish uchun Mijozga Bank tomonidan taqdim etiluvchi texnik vositalar (keyingi o‘rinlarda - "Asbob-uskuna");<br>1. savdo terminali - Kartaning to‘lov qobiliyatini tekshirilishini, Kartalar bo‘yicha ma’lumotlarni elektron to‘plash va keyingi ishlov berish uchun Bankga kommunikatsiyalar orqali elektron shaklda uzatilishini amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lgan qurilma.<br>2. olib chiqiluvchi klaviatura - karta Saqlovchisi PIN kodni kiritish yo‘li bilan Kartaning to‘lov qobiliyatini tasdiqlovchi qurilma. |
| **Tranzaksiya** | Asbob-uskuna va taqdim etilgan Karta yordamida Mijozning xodimi tomonidan amalga oshiriluvchi to‘lov. Tranzaksiyaning o‘tkazilishi PIN-kod yordamida Kartochka Saqlovchisi tomonidan tasdiqlanadi. |
| **To‘lovlarni qaytarish** | amalga oshirilgan Tranzaksiyaga nisbatan Mijoz tomonidan amalga oshiriluvchi karta hisobiga pul mablag‘larini qaytarish. |
| **Qog‘ozli nusxalar** | barcha Tranzaksiyalar bo‘yicha yoki ularning hisobot davri uchun o‘tkazilgan umumiy qiymatlari bo‘yicha Asbob-uskuna tomonidan chop etilgan cheklar, nazorat tasmalari va yakunlarni solishtirishning hisoboti nusxasi. |
| **Inkassatsiya (Yakunlarni solishtirish)** | Tranzaksiyalarni ishlov berishga Bankga yuborish protsedurasi. Ushbu protsedura bir kunda kamida bir marta amalga oshiriladi. |
| **Stop - varaq** | Karta Saqlovchisi tashabbusi, hamda BTT qoidalari bilan ko‘zda tutilgan boshqa sabablar bo‘yicha xizmat ko‘rsatilishi taqiqlangan bank kartalarining ro‘yxati. |
| **BTT** | UzCard yoki HUMO, hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida Kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatish qoidalarini o‘rnatuvchi O‘zbekiston Respublikasida amal qiluvchi boshqa Banklararo to‘lov tizimi. |

## I. Asosiy qoidalar

1.1. Mazkur POS terminali yordamida milliy valyutada xizmatlar ko‘rsatish va to‘lovlarni

qabul qilish Umumiy shartlar (keyingi oʻrinlarda "Umumiy shartlar") bank kartalaridan elektron toʻlovlar boʻyicha maʼlumotlarga ishlov berishda Tomonlarning oʻzaro harakatlar protsedurasini va POS terminali yordamida toʻlovlar boʻyicha maʼlumotlarni qabul qilish va ularga ishlov berish boʻyicha Shartnomani tuzishni tartiblashtiradi.

1.2. Mijoz Bank tomonidan taqdim etilgan Asbob-uskunani qoʻllab, tovarlarni yoki xizmatlarni toʻlanishiga Kartochkani toʻlovga qabul qilinishini amalga oshiradi.

1.3. Shartnoma boʻyicha oʻzaro hisob-kitoblar Oʻzbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi. Mijoz Bankga Asbob-uskunalardan foydalanish uchun ijara toʻlovini va Bankning Tariflariga binoan tranzaksiyalarga ishlov berish uchun komissiyani toʻlash majburiyatini oʻz zimmasiga oladi. Shartnomaning amal qilish muddati yakunlanishi boʻyicha Bankdan olingan Asbob-uskunani qaytarishi kerak.

## II. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2.1. **Bank quyidagi majburiyatlarni oʻz zimmasiga oladi:**

2.1.1. Mijozga Kartochkalar Saqlovchilariga xizmat koʻrsatish uchun Asbob-uskunalarni qabul qilish-topshirish Dalolatnomasi (1-Ilova) boʻyicha ijaraga topshirish.

2.1.2. ikki bank kuni davomida Tarifga binoan Bank komissiyasini chegirib qolish evaziga Mijozning hisobiga joriy amaliyot bank kuni davomida inkassatsiya qilingan Tranzaksiyalarning qiymatini Mijozga oʻtkazish.

2.1.3. Mijozga barcha amalga oshirilgan Tranzaksiyalar boʻyicha hisobotlarni berish.

2.1.4. Kartochkalar Saqlovchilariga xizmat koʻrsatish uchun zarur boʻlgan texnologik Asbob-uskunalarning ishga layoqatliligini taʼminlash boʻyicha barcha choralarni koʻrish.

2.2. **Bank quyidagi huquqlarga ega:**

2.2.1. agar Mijoz mazkur Umumiy shartlarning 4.2.2-bandi koʻrsatmalarini buzgan, yoki Mijoz bir oy muddat davomida Tranzaksiyalarni amalga oshirmagan, yoki Mijoz tomonidan amalga oshiriluvchi Tranzaksiyalar ichki nazoratning amaldagi qoidalariga binoan gumonli yoki shubhali xarakterga ega boʻlgan holatda 10 (oʻn) kun oldin Mijozni xabardor qilish yoʻli bilan Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish.

2.2.2. Mijozga pul mablagʻlarini oʻtkazilishini toʻxtatish, agar:

- Tranzaksiya boʻyicha maʼlumotlar notoʻgʻri yoki tegishli boʻlmagan koʻrinishda amalga oshirilgan boʻlsa;
- Kartochka Saqlovchisi Tranzaksiyaga nisbatan daʼvo kiritgan, va ushbu daʼvo qoniqtirilganda;
- Mijozni qayta tashkillashtirish yoki tugatilishi jarayoni oʻrin tutgan boʻlsa. Ushbu holatda, toʻlovlar qonuniy voris toʻgʻrisidagi masala tugatish komissiyasi yoki boshqa vakolatlangan organlar tomonidan qaror qabul qilinguniga qadar ushlab qolinadi.

2.2.3. Tariflarga oʻzgartirishlarni bir tomonlama tartibda kiritish, bunda Korxonani Internet tarmogʻidagi Bankning saytida xabarnomani joylashtirish yoʻli bilan ushbu oʻzgartirishlar kiritilguniga qadar kamida 10 (oʻn) kalendar kundan oldin xabardor qilishi.

2.2.4. agar Mijoz mazkur Umumiy shartlarning 4.2.2-band va 4.2.3-band koʻrsatmalarini buzgan holatda, Bankning amaldagi Tarifiga binoan jarima qiymatini Mijozdan undirib olish.

2.2.5. Asbob-uskunani yoʻqotish,buzish holatida, Bankning amaldagi Tarifiga binoan qoplash va jarima qiymatini Mijozdan undirib olish.

2.3. **Mijoz quyidagi majburiyatlarni oladi:**

2.3.1. tovarlar yoki xizmatlar uchun qanday shartlarda boʻlsa, naqd pulda hisob-kitob uchun ham xuddi shunday shartlarda toʻlovga faqat Stop-varaqda boʻlmagan haqiqiy Kartochkalarni qabul qilish.

2.3.2. Bank tomonidan yetkazib beriluvchi reklama belgilari yoki boshqa materiallarni oʻz xonasida toʻgʻri aks ettirish va Bank tomonidan maʼqullangan nomlanishlarni yoki tasvirlarni faqat Kartochkalar Mijoz tomonidan toʻlov vositasi sifatida qabul qilinishini koʻrsatish uchun qoʻllaniladi.

2.3.3. agar Kartochka Stop-varaqga joylashtirilgan va terminalning displeyida muvofiq xabar olingan bo‘lsa, to‘lov sifatida taqdim etilgan Kartochkani barcha erishimli qonuniy va ongli vositalar yordamida ushlab qolish.

2.3.4. Shartnoma maqsadlari uchun faqat Bank tomonidan taqdim etilgan dasturiy ta’minotni qo‘llash. Bank tomonidan taqdim etilgan Asbob-uskunalarga ruxsat etilmagan kirishni istisno qilish.

2.3.5. Kartochka Saqlovchisiga o‘tkazilgan Tranzaksiyani tasdiqlashda chekning chop etilgan nusxasini berish.

2.3.6. bank xabarnomasidan keyin bir bank kuni davomida, Bank Shartnomaga binoan Mijozdan talab qilib olishga haqli bo‘lgan har qanday Tranzaksiya bo‘yicha qiymatni Bankga qaytarish.

2.3.7. 3 (uch) ish kuni davomida rekvizitlarni, jumladan, bank rekvizitlarini barcha o‘zgarishlari SSK rahbariyatini almashitirilishi haqida Bankni, muvofiq o‘zgarishlarni tasdiqlovchi hujjatlarning tegishli ravishda tasdiqlangan nusxalarini kelajakda taqdim qilish bilan xabardor qilish.

2.3.8. Asbob-uskunaning texnik yoki dasturiy nosozligi hosil bo‘lgan holatda, Mijoz, bir ish kunidan kechiktirmasdan, bu haqda Bankni xabardor qilish, Asbob-uskunanini qaytarish Dalolatnomasi (3-Ilova) asosida Bankga Asbob-uskunani yetkazib berish/uzatish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

2.3.9. Asbob-uskunaning shikastlanishi yoki yo‘qotilishiga yo‘l qo‘ymaslik. Shikastlanish yoki yo‘qotilish holatida bu haqda Bankga zudlik bilan yozma ravishda xabar qilish.

2.3.10. shartnoma muddati yakunlanishi yoki uning muddatidan oldin bekor qilinishidan keyin, 3 (uch) kun davomida asbob-uskunani bankga but va saqlangan holatda qaytarish.

2.3.11. mazkur shartnoma bekor qilish sanasidan kartalarga xizmat ko‘rsatishni to‘xtatish.

2.3.12. Bankning amaldagi Tariflariga binoan Bank komissiyalarini to‘lash.

2.3.13. Asbob-uskuna bilan avaylamasdan munosabatda bo‘lish yoki agar Mijoz 4.2.2-bandning va 4.2.3-bandning ko‘rsatmalarini buzgan, bularning natijasida Asbob-uskunani kelajakdagi faoliyat yuritishi va ekspluatatsiyasi imkonsiz bo‘lishi holatida, Bankdan xabarnomani olgandan keyin 10 ish kuni davomida Bankning amaldagi Tarifiga binoan Bankga jarimani to‘lash.

2.3.14. Asbob-uskuna bilan avaylamasdan munosabatda bo‘lish yoki agar Mijoz 4.2.2-bandning va 4.2.3-bandning ko‘rsatmalarini buzgan, bularning natijasida Asbob-uskunani kelajakdagi faoliyat yuritishi va ekspluatatsiyasi terminallarni va aloqa liniyalarini ta’mirlanishini (xizmat ko‘rsatilishini) amalga oshiruvchi tashkilot tomonidan tiklanishi holatida, Bankdan xabarnomani olgandan so‘ng 10 ish kuni davomida Bankning amaldagi Tarifiga binoan Asbob-uskunani ta’mirlanishi narxi o‘lchamida Bankga jarimani to‘lash.

2.3.15. Asbob-uskunani yo‘qotish holatida, Bankning amaldagi Tarifiga binoan Bankga jarima to‘lash.

2.3.16. Shartnomaning amal qilishini tugatilishi holatida 3 (uch) ish kuni davomida Bankga Asbob-uskunani taqdim etish.

2.3.17. mazkur Umumiy shartlarga 2-Ilova hisoblanuvchi Korxona So‘rovnomasini to‘ldirish.

2.4. **Mijoz quyidagi huquqlarga ega:**

2.4.1. amalga oshirilgan Tranzaksiyalar bo‘yicha Bankdan ko‘chirmani so‘rab olishga.

2.4.2. Mijozning xodimlarini qo‘shimcha yo‘riqdan o‘tkazish haqida Bankdan so‘rab olishga.

2.5. **Mijoz quyidagi huquqlarga ega emas:**

2.5.1. To‘lovni qaytarishda naqd pul mablag‘larini berish, ya’ni tovar yoki xizmatdan Egasining voz kechishi, ushbu holatda Mijoz naqd pulsiz shaklda Kartochka Saqlovchisining karta hisobiga mablag‘larni o‘tkazilishini amalga oshiradi.

2.5.2. Stop-varaqda ko‘rsatilgan Kartochkalarni to‘lov vositasi sifatida qabul qilish.

2.5.3. boshqa shaxslarga va tashkilotlarga Asbob-uskunalarni va Tranzaksiyani amalga

oshirish haqida ma’lumotlarni uzatish, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan muvofiqlikda nazorat funksiyalariga ega bo‘lgan shaxslar bundan mustasno.

2.5.4. bir xil Tranzaksiya bo‘yicha har qanday ko‘rinishda ma’lumotlarni takroran taqdim etish.

2.5.5. Asbob-uskunaning korpusini ochish, mustaqil ta’mirlashni amalga oshirish, Asbob-uskunaning butlovchi qismlarini almashtirish, Bank tomonidan taqdim etilgan dasturiy ta’minotga o‘zgartirishlar kiritish.

## III. O‘zaro hisob-kitoblar tartibi

3.1. Asbob-uskunadan foydalanish uchun Mijoz Bankga Bankning amaldagi Tarifiga binoan ijara to‘lovini to‘laydi.

3.2. Asbob-uskunani taqdim etish sanasiga bog‘liq bo‘lmagan holda, ijara to‘lovining qiymati joriy (to‘lanuvchi) oyning oxirgi bank kunidan kechiktirmasdan memorial order asosida akseptsiz tartibda Bank tomonidan chegirib qolinadi.

3.3. Bank oldida qarzdorlikni qoplash uchun Mijozning hisoblarida pul mablag‘larining mavjud emasligida yoki yetarlicha bo‘lmasligida, qarzdorlikning so‘ndirilmagan qismi asosiy hisobga to‘lov talabnomasini chiqarish yo‘li bilan qoplanadi. Bunga Mijoz bunday hisobdan yechib olishga o‘z roziligini (akseptini) beradi.

## IV. Tomonlarning javobgarligi

4.1. **Bank quyidagilar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi:**

4.1.1. Shartnomaning shartlariga muvofiq kelmaydigan yoki zid keladigan Tranzaksiyalar bo‘yicha to‘lovlarni ta’minlash bo‘yicha.

4.2. **Mijoz quyidagilar uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi:**

4.2.1. Stop-varaqda bo‘lgan Kartochkaga xizmat ko‘rsatish;

4.2.2. Mijoz tomonidan Shartnoma ko‘rsatmasini buzishda Bankga u tomonidan keltirilgan zarar;

4.2.3. Mijozga beriluvchi Asbob-uskunaning saqlanganligi va ishga layoqatliligi.

4.3. O‘z majburiyatlarini bajarmaslik yoki tegishli bo‘lmagan ravishda bajarish uchun, Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

4.4. Bankning javobgarlik zonasi faqat mazkur Umumiy shartlarda aks ettirilgan majburiyatlar bilan cheklangan. Bank asbob-uskunadagi texnik buzilishlar uchun, hamda qonunchilik va uchinchi tomonning aybi bo‘yicha o‘zi bilan Xizmat ko‘rsatilishini vaqtinchalik yoki to‘liq to‘xtatilishini olib kelgan boshqa cheklovlar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

4.5. Mazkur Umumiy shartlar bo‘yicha majburiyatlarni Tomon bilan bajarilmasligi yoki tegishli bo‘lmagan ravishda bajarilishi holatida jarimalarni to‘lash va zararlarni qoplash Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishdan Tomonlarni ozod etmaydi.

## V. Yakuniy qoidalar

5.1. Mazkur Shartnomadan yoki uning munosabatida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan yoki vujudga kelgan, jumladan uni tuzish, o‘zgartirish, bajarish, buzish, bekor qilish, to‘xtatish, haqqoniyligi yoki tuzilmaganligiga (to‘liq va/yoki qismi) taalluqli bo‘lgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar yoki e’tirozlar Universal shartnomada o‘rnatilgan tartibda hal etilishi kerak.

5.2. Mazkur Umumiy shartlarga va uning tarkibiy qismlariga o‘zgartirishlar va/yoki qo‘shimchalar/o‘zgartirishlar kiritish, jumladan, Bank tomonidan mazkur Umumiy shartlarning, Tariflarning, Arizaning yangi tahririni tasdiqlanishi majmuaviy xizmat ko‘rsatish Shartnomasi

va/yoki Umumiy shartlar bilan o‘rnatiluvchi xususiyatlarni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan ko‘zda tutilgan tartibda Bank tomonidan amalga oshiriladi.

5.3. Mazkur Umumiy shartlar bilan ko‘zda tutilmagan holatlarda, Tomonlar Universal shartnomaning shartlari bilan rahbarlik qiladi.

.

**POS terminal yordami milliy valyutada xizmat ko'rsatish va to'lovlarni qabul qilishning Umumiy shartlariga 1-Ilova**

**Asbob-uskunalarni qabul qilish - topshirish DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

Ushbu dalolatnoma shu haqda tuzildiki, plastik kartochkalari saqlovchilariga xizmat ko'rsatish uchun quyidagi Asbob-uskunalarni **Bank topshiradi**, **Mijoz** esa **qabul qiladi**.

| Asbob-uskunaning nomlanishi | Birlik miqdori (dona) | Birlikning narxi (So'm) | Seriya raqami | Inventar raqami |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |

Mulk topshirilish paytiga soz holatda.

**Bank:**
**Topshirdi**

**Mijoz:**
**Qabul qildi**

**POS terminal yordami milliy valyutada xizmat koʻrsatish va toʻlovlarni qabul qilishning Umumiy shartlariga 2-Ilova**

## KORXONA SOʻROVNOMASI

Korxonaning nomlanishi ______________________________

Yuridik manzili: «Yur_Manzil»

Moʻljal: ______________________________

Rahbarning F.I.O. ______________________________

Rahbarning kontakt telefoni «kontakt_tel»

Buxgalterning F.I.O. ______________________________

Buxgalterning kontakt telefoni ______________________________

Korxonaning bank hisobi rekvizitlari

Faoliyat sohasi: «Faoliyat_sohasi»

Agar Korxona tovarlar/xizmatlar savdosining bir nechta punktlarga ega boʻlgan va asbob-uskunalarni oʻrnatish joylari shaharning / tumanning turli qismlarida joylashgan holatda, iltimos, savdo nuqtalari haqidagi kontakt ma’lumotni koʻrsating:

| *Savdo nuqtasining nomlanishi* | *Kontakt ma’lumotlar* |
|---|---|
| | Manzili:<br>Moʻljal:<br>Kontakt telefonlar:<br>Kontakt shaxsning F.I.O.: |

**Asbob-uskunani qaytarish**
**DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

Ushbu dalolatnoma shu haqda tuzildiki, plastik kartochkalari saqlovchilariga xizmat koʻrsatish uchun quyidagi Asbob-uskunalarni **Mijoz topshiradi**, **Bank** esa **qabul qiladi**.

| Asbob-uskunaning nomlanishi | Birlik miqdori | Birlikning narxi (Soʻm) | Seriya raqami | Inventar raqami |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |

**Asbob-uskunani qaytarish sababi** ("zogʻcha" bilan belgilang, muvofiq maydonlarni toʻldiring)**:**

☐ 20 g.«Shartnoma_sanasi»**dagi** -son **shartnomani bekor qilish**

Asbob-uskunaning holati:
_________________________________________________________________

☐ **Asbob-uskunaning nosozligi**

1. **Mijozning aybi boʻyicha,** agar quyidagi alomatlardan biri mavjud boʻlsa: *Asbob-uskunaning korpusini zoʻraki ochilishi izlari mavjudligi, Asbob-uskunaning kimyoviy moddalar bilan shikastlanishi, Asbob-uskunaning yongʻin taʼsiri natijasida shikastlanishi, hamda Asbob-uskunaning butlovchi qismlarini almashtirish izlarining mavjudligi, Bank tomonidan taqdim etilgan dasturiy taʼminotga oʻzgartirish kiritish*:

(sabab koʻrsatilsin)_________________________________________________
_________________________________________________________________
_________________________________________________________________

2. **Asbob-uskunaning muddatidan oldin eskirishi yoki dasturiy buzilishi.**
_________________________________________________________________
_________________________________________________________________